MENING MUVAFFAQIYAT YO‘LIM 2023

II

MENING

MUVAFFAQIYAT YO‘LIM

BIOGRAFIK ENSIKLOPEDIYASI

2023-II

MENING MUVAFFAQIYAT YO‘LIM

BIOGRAFIK ENSIKLOPEDIYASI

2023-YIL TO‘PLAMI

2-QISMI

Toshkent 2023



Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz!

Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz!

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

UDK: 37.0
KBK: 74.00
U-94

“Mening muvaffaqiyat yo‘lim” biografik ensiklopediyasi 2023-yil to‘plami 2-qismi. – T.: Science and Innovation. 2023. 70b.

Ushbu kitobda yurtimizda olib borilayotgan islohatlarni amalga oshirishda o‘z kuch g‘ayrati bilan mehnat qilayotgan tashabbuskor insonlarning muvaffaqiyatga erishish yo‘llari yoritib berilgan. Ilm-fan, ta’lim, san’at, tibbiyot, sport, ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan muvaffaqiyatli insonlar biografiyasi jamlandi.

Kitob keng kitobxonlar o‘qishiga mo‘ljallangan.

© “Science and Innovation” MCHJ ISBN 978-9943-9640-1-3



ABDURAHIMOVA DILNAVOZ BOQIJON QIZI

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

- 20 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan;
- “Iqtidorli yoshlar” kengashi a’zosi;
- Xalqaro va respublika konferensiyalari ishtirokchisi.
- Ko‘plab tanlov va musobaqalar ishtirokchisi va sovrindori.

Abdurahimova Dilnavoz Boqijon qizi 2003-yil 18-mayda Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumanida tavallud topgan. Dastlab, tumandagi 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabda keyin esa, 2-ixtisoslashtirilgan maktab-internatida tahsil olgan. Maktab-internatda bir qancha tanlovlarda qatnashib viloyat bosqichida faxrli o‘rinlarni egallagan. O‘qish davomida barchaga o‘rnak bo‘lib kelgan.



Dilnavoz Abdurahimova “Kitobxonlik oyligi” doirasida o‘tkazilgan olimpiadaning mutlaq g‘olibi. Maktab-internatni oltin medal bilan tamomlagan. 2020-yil Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishiga qabul qilingan. 2021-yildan hozirgi vaqtgacha “Iqtidorli yoshlar” kengashi a’zosi hisoblanadi.



2020-yil o‘quv yilida ona tili va adabiyotidan o‘tkazilgan olimpiada viloyat bosqichi g‘olibi. Qator tanlovlar, xususan, viloyat miqyosida o‘tkazilgan tanlovda “Eng ta’sirli g‘azal” nominatsiyasini qo‘lga kiritgan. Shuningdek, 2020-yili bo‘lib o‘tgan “Men o‘qigan kitob” tanlovining viloyat bosqichi g‘olibi hamda “Yosh kitobxon” musobaqasida viloyat

bosqichida faxrli o‘rinni qo‘lga kiritib, viloyat hokimining e’tirofiga sazovor bo‘lgan.



2022-yil O‘zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan insholar tanlovida “Konstitutsiya-baxtimiz poydevori” deb nomlangan inshosi bilan ishtirok etib 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan. 2019-2022-yillar davomida First International MODEL III, International “NEW LIFE MODEL UNITED NATIONS”, International



UNION X, “INTERNATIONAL UNION V” III session, “Bukhara International Youth Conference”, “Aral Sea Youth Online Conference” xalqaro konferensiyalarda ishtirok etib, sertfikatlarni qo‘lga kiritgan. U ko‘plab she’riyat tanlovlarida ishtirok etgan, xususan, “Navoiy nazmi dillarda” tanlovining mutlaq g‘olibi bo‘ldi. Shuningdek, “Biz sevgan adib”, “International forum solidarity forum for Afghanistan and Uzbekistan youth”, “UPWARD GROWTH FORUM” da, “Xotira aziz-jasorat mangu” she’rlar tanlovida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 30 yilligiga bag‘ishlab Respublika iqtidorli talaba-yoshlar klubi Farg‘ona viloyati Kengashi tomonidan o‘tkazilgan “O‘zbekiston-Vatanim manim” tanlovida, O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi Farg‘ona viloyati kengashi O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi hamda Latviyaning axborot tizimlari menejmenti oliy maktabining Farg‘ona shahridagi filiali bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Xotira aziz - jasorat mangu” insholar tanlovida, “Korrupsiya-taraqqiyot kushandasi” deb nomlangan insholar “Eng yaxshi insho” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rinni egallagan.



Bundan tashqari, 2022-yil bo‘lib o‘tgan “Gerbim-faxrim” intellektual olimpiadasining “Eng faol bilimdon” nominatsiyasiga sazovor bo‘lib, Respublika bosqichi g‘olibasi. Universitet rektorining e’tirofiga bir necha marta sazovor bo‘lgan. Uning ko‘plab maqolalari ingliz va rus tillarida Amerika, Rossiya kabi jahonning qator mamlakatlarining konferensiya va jurnallarida e’lon qilingan.

Uning filologiya sohasidagi faoliyati tilshunoslik yo‘nalishi bilan bog‘liq. Bundan ko‘zlangan maqsad zamonaviy tilshunoslik muammolarini yechishdan iborat.



AHMADJONOVA MASHHURA AKRAMJON QIZI

Namangan davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi sirtqi ta'limida 3-bosqich talabasi

- “Eng faol kitobxon” Respublika ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichida faxrli 2-o‘rinni egallagan;
- O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2021-yil 24-maydagi Farmoniga binoan ta’sis etilgan “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan taqdrilandi;
- 2020-yil Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga saralash ko‘rik tanlovining Uychi tuman bosqichida adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

1999-yil 25-oktyabrda Namangan viloyati Uychi tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Uychi tumanidagi 36-sonli maktabda ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi.

Adabiyotning she’riyat yo‘nalishida ijod qiladi. Yetakchilik, notiqlik, tashabbuskorlik qobilyatiga ega. Uning ijodiga mansub she’rlari Respublika, viloyat, tuman matbuotlarida e’lon qilingan.

“Eng faol kitobxon” Respublika ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichida faxrli 2-o‘rinni egalladi.

Namangan viloyati “Yozuvchilar uyushmasi” tomonidan o‘tkazilgan “Paramon anjumani” da faol ishtirok etib, tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

“O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” tomonidan Toshkent viloyati Bo‘stonlik tumanida o‘tkazilgan “Birinchi Respublika yosh ijodkorlar forumi”da faol ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlandi.

2020-yil “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi respublika 18-ko‘p tarmoqli konfrensiyada sertifikat bilan taqdirlangan.

2020-yil Toshkentda o‘tkazilgan “Bahor diydori” tanlovida “UMIRBOQIY MEROS” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazi tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

2020-yil Respublika “Lider qizlar” festivalida Alisher Sa’dullaev tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi.

2020-yil 28-iyunda “Ezgu amal” onlayn formda sertifikat bilan taqdirlandi.

2020-yil “International girls summit-2020” xalqaro sammitda sertifikat bilan taqdirlandi.

2020-yil “Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo‘llanishi” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyada sertifikat bilan taqdirlandi. 2020-yil Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga saralash ko‘rik tanlovining Uychi tuman bosqichida adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi va Diplom bilan taqdirlandi.

2021-yil O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi Namangan viloyat bo‘limi tomonidan Respublika lider qizlar festivali doirasida o‘tkazilgan “LIDER GIRLS NAMANGAN-2021” festivalida sertifikat bilan taqdirlandi.



2021-yil Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Namangan viloyati bo‘limi tomonidan “Ajdodlar jasorati” mavzusidagi o‘tkazilgan tanlovda 1-darajali diplom hamda kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlandi.

2021-yil 10-11-12-iyun kunlari Respublika miqyosida o‘tkazilgan “STRATEGY FORUM” da faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2021-yil 16-25-avgust kunlari Respublika miqyosida o‘tkazilgan “STRATEGY” forumining V mavsumida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

Respublika bo‘yicha 2021-yil 11-13-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tgan “Target Future Conference” onlayn konferensiyasida tengdoshlar orasida faol ishtiroki uchun sertifikat va tashakkurnomalar bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2021-yil 24-maydagi Farmoniga binoan ta’sis etilgan “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan taqdrilandi.

2021-yil Qozog‘iston Respublikasining “Jahon iste’dodlari jamiyati” a’zoligiga qabul qilindi.

2021-yil “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” Respublika tanlovining Uychi tuman bosqichida adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi va Diplom bilan taqdirlandi.

2021-yil 27-29-noyabr kunlari Respublika miqyosida o‘tkazilgan “MERGER YOUTH FORM” Respublika online forumida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2021-yil “3-RENESSANS YOSHLARI” Respublika online konferensiyasida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2021-yil “Ability Youth Forum 2021” Respublika online forumiida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2021-yil 5-dekabr kuni Toshkentda o‘tkazilgan “Ezgulikda birlashaylik” Respublika ofline konferensiyasida faol ishtiroki uchun sertifikat va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

2021-yil o‘tkazilgan “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” Respublika tanlovining viloyat bosqichida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14 martdagi 100-sonli Qaroriga binoan ta’sis etilgan “Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi” esdalik nishoni bilan taqdirlandi.

Tumanda yoshlar o‘rtasida bir qator chellenge va fleshmoblar o‘tkazmoqda. Mashhura o‘zining tashabbusi bilan tumanda bir qator tadbir va tanlovlarni tashkil etgan. Jumladan: 18-noyabr O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan “Yuksalar qo‘limizda-O‘zbekiston bayrog‘i” shiori ostida foto va rasmlar tanlovi, 2021-yil kirishi munosabati bilan “Yangi yilda yangi marralar” shiori ostida ijodiy tanlov, 30-iyul

“Odam savdosiga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Yoshlar odam savdosiga qarshimiz” shiori ostida ijodiy ishlar tanlovi, Mustaqilligimizning 30 yilligiga bag‘ishlab “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” shiori ostidagi ijodiy ishlar tanlovlarini tashkillashtirib kelmoqda.



Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining majlisida berilgan topshiriqlari hamda 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5040-sonli qaroriga muvofiq maktablarda joriy etilgan Ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimida tumandagi 36-sonli umumiy o‘rta ta'lim maktabida faoliyat yuritib, “Yosh qalamkashlar” to‘garagiga rahbarlik qilib kelmoqda. Ushbu to‘garak a’zolari bo‘lgan bir qator shogirdlari ham tuman, viloyat tanlovlarida faol ishtirok etib, g‘olib bo‘lmoqdalar. Jumladan shogirdi Pokiza Axmadjonova 2021-yil “Kamalak yulduzlari” Respublika ko‘rik tanlovining Respublika bosqichi lauriyati bo‘ldi. Shuningdek Respublikada o‘tkazilgan yil ijodkori tanlovida “Yilning eng yosh ijodkori” sifatida g‘olib bo‘ldi. To‘garakning yana bir a’zosi Ma’rufjon Maxammadaliev “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” Respublika ko‘rik tanlovining viloyat bosqichida san’at yo‘nalishida, Yusupova Shohista esa tasviriy san’at yo‘nalishi bo‘yicha “Olov tilsiz yov” tanlovida g‘olib bo‘lishdi.

2021-yil 15-dekabr kuni “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchilar faoliyati samaradorligini oshirish” mavzusidagi treningni muvaffaqiyatli yakunligi uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 31-yanvar, 1-2-fevral kunlari Parvoz yoshlar forumining 3-mavsumida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil London konfrensiyada faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” respublika tanlovining tuman bosqichida ishtirok etib, nazm yo‘nalishida faxrli 1-o‘rinni egallagani uchun 1-darajali diplom bilan taqdirlandi.

2022-yil MDX davlatlar o‘rtasida o‘tkazilgan “Yosh olim-2022” tanlovida ilmiy maqolasi bilan ishtirok etib Qozog‘iston Respublikasida 1-darajali diplom hamda ko‘krak nishon bilan taqdirlandi.



2022-yil Rassiyaning “Renome” nashri tomonidan “XXI vek. Molodej novogo Uzbekistana” nomli kitob uchun sertifikatni qabul qildi.

2022-yil “Vatan taraqqiyotiga mening hissam” Respublika tanlovining Namangan viloyat bosqichida faol ishtirok etgani uchun sertifikat hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

“Ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha eng faol targ‘ibotchi” Respublika tanlovining tuman bosqichida faol ishtirok etib 1-o‘rinni egallagani uchun 1-darajali diplom hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Viloyat yosh ijodkorlarining “Poromon - 2022” anjumanida faol ishtiroki uchun O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Namangan viloyati bo‘limi rahbari tomonidan sertifikat hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

2022-yil “Ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha eng faol targ‘ibotchi” Respublika tanlovining viloyat bosqichida faol ishtiroki uchun sertifikat hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.



2022-yil Mahalla yoshlari o‘rtasida besh bosqichli “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasidagi Mushoira tanlovining Namangan viloyat bosqichida faol ishtiroki uchun sertifikat hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. Ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanadi. Feysbook tarmog‘ida o‘z kuzatuvchilariga ega. Daryo.uz, Ziyonet.uz, Kun.uz, Ayol.uz, Xabar.uz kabi saytlardan keng foydalanadi.

Mashhura “Kamalak” bolalar tashkilotida Uychi tuman koordinatori vazifasida jamoatchilik asosida faoliyat yuritib kelmoqda. Sardorlar bilan ko‘plab loyihalarni amalga oshirishadi. O‘zi tayyorlagan sardorlar “Eng namunali hududiy sardorlar kengashi” respublika ko‘rik tanlovining viloyat bosqichida faxrli 1-o‘rinni egallab, Respublika bosqichida faol ishtirok etishdi. 36-maktabdagi o‘quvchilari “Kamalak bilimdonlari” Respublika tanlovining tuman bosqichida g‘olib bo‘lib, viloyat bosqichida 4-o‘rinni egallashdi.

Hozirda yoshlar ittifoki Namangan viloyat kengashining faol a’zosi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq demokratik partiyasi Namangan viloyati kengashi faoli, Xalq demokratik partiyasi Uychi tumani kengashi “Istiqbol yoshlar qanoti” koordinatori.

Mashhura Axmadjanova hozirda Respublika Yosh olimlar Kengashi a’zosi hisoblanadi.



BERDIYEVA IRODA XUDAYSHUKUROVNA

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi, tayanch doktarantura talabasi, boshlovchi

- Respublika va xalqaro tanlovlar ishtirokchisi va sovrindori;
- “Dunyo bo‘ylab” telekanalida boshlovchi bo‘lib faoliyat olib borgan.
- Gazeta, jurnal, internet nashrlari va konferensiyalarda maqolalari chop etilgan.
- Davlat rahbari tomonidan uning takliflari qo‘llab-quvvatlanib, Prezident hisobidan tayanch doktaranturaga qabul qilindi hamda unga zamonaviy tikuv korxonasi ochib beriladigan bo‘ldi.

Berdiyeva Iroda Xudayshukurovna 1993-yil 7-yanvarda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida tug‘ilgan. Hozirgi kunda Toshkent shahar “Yangi hayot” tumani “Oriyat” MFYda doimiy ro‘yxatda turib, mahallaning faol va iqtidorli yoshlaridan biri hisoblanadi.



Uning faoliyatiga umumiy nazar soladigan bo‘lsak, Chiroqchi tumanidagi 160-umumiy o‘rta maxsus ta’lim maktabini tamomlab, 2009-2012-yillarda Sport va pedagogika kollejida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olgan.

2012-2015-yillar oralig‘ida tumanning “Qizlarjon klubi” yetakchisi sifatida faollik ko‘rsatgan. Shundan so‘ng, 2015-2019-yillarda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutinining Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” ta’lim yo‘nalishini tugatib, 2019-2021-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Falsafa (qo‘llash sohasi) mutaxassisligi bo‘yicha magistraturani tamomlagan. Iroda Berdiyeva mehnat faoliyatini 2018-yilda O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining “Dunyo bo‘ylab” telekanalida muallif va boshlovchi sifatida boshlagan. Telekanalda turli mavzulardan kelib chiqib hujjatli film, bir qator ko‘rsatuv va lavhalar muallifidir. Shuningdek, “Turfa olam”, “Shifokorim tabiat”, “Shifotur”, “Agroturizm”, “Efirda biz” nomli ko‘rsatuvlar boshlovchisi bo‘lib faoliyat olib borgan. Jumladan, “ITWomenUz” loyihasi va uning doirasidagi barcha tadbirlarni keng ko‘lamda yoritib, ushbu lavhalarda xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, ularni qo‘llab-quvvatlash, yangi loyilarini

hayotga keng tatbiq etishda berilayotgan ko‘mak kabi masalalarni ochib bergan. Shuningdek, u turizm sohasi yo‘nalishini ham keng yoritilishida amaliy yordam ko‘rsatgan.



2019-yilning 9-10-avgust kunlari poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan BMTning Butunjahon turizm tashkiloti va O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamkorligida tashkil etilgan biznes turizmi va MAYS turizm bo‘yicha mahorat darslarida faol ishtirok etish barobarida uning har bir jarayonini telekanal orqali yoritib bordi. Ushbu jarayonlar UNWTO tomonidan ham munosib e’tirof etilib, u tashkilotning maxsus sertifikati bilan taqdirlangan. Iroda Berdiyeva nufuzli xalqaro tadbirlardan maxsus ko‘rsatuvlar tayyorlashda jonbozlik ko‘rsatgan. Birgina, “Tashkent fashion week - 2019” xalqaro moda haftaligi va uning doirasidagi tadbirlardan 40 daqiqalik hujjatli film tarzidagi ko‘rsatuv tayyorlaganini ta’kidlash zarur. Unda muallif moda va dizayn sohasini juda yaxshi bilgani ko‘rsatuvning mukammal va qiziqarli, shu bilan birga liboslar kolleksiyasini yaxshi tahlil qila olganida namoyon bo‘lgan.

Iroda Berdiyeva telekanaldagi faoliyati davomida o‘zining intiluvchanligi, suxandonlikka muhabbati, hamkasblariga yuksak hurmati tufayli ijodiy jamoada tezda o‘rnini topgan hamda o‘zining namunali xulqi, yangilikka chanqoqligi, faolligi, tashkilotchilik qobiliyati bilan hamkasblariga namuna bo‘lib, ijodiy ishlarida muharririyatdagi tengdoshlariga nisbatan ishga mas’uliyat bilan yondashishi va berilgan vazifani sidqidildan bajarishga harakat qilish sifatlarini ham qadrlash mumkin.

Teleboshlovchilik bilan cheklanib qolmasdan libos dizaynerlik faoliyati bilan ham shug‘ullanib keladi. Zero, telemahsulot tayyorlash jarayonida boshlovchi va jurnalistlarning imiji o‘ta muhim jihatlardan hisoblanadi. Libos tanlash, unga qo‘shimcha elementlarni joylash kabi ishlarni uning o‘zi bajarishi efir sifatini ta’minlashda katta yordam bergan.

Berdiyeva yosh, iqtidorli va ingliz tilida mukammal so‘zlashadigan mutaxassis sifatida 2020-2022-yillar oralig‘ida Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutiga Matbuot kotibi lavozimiga ishga qabul qilinib, oliygohning barcha yangiliklarini institut rasmiy sayti “ttyesi.uz”, “Facebook”, “Instagram” kabi ijtimoiy tarmoq sahifalari hamda “YouTube” kanalida video tarzida joylab, kuzatuvchilar e’tiborini tortgan. Shu bilan bir qatorda, “To‘qimachi”, “Guliston” jurnali, “Ma’rifat”, “Yangi O‘zbekiston”, “Ishonch” gazetalarida institutda kuzatilayotgan yangiliklar, amalga oshiralayotgan islohotlar va kelgusidagi ilmiy, ijodiy va amaliy ishlar haqida badiiy maqolalari chop etilgan. Mehnat faoliyatidagi eng katta samarali ishlaridan biri institutda o‘z tashabbusi bilan Press klub tashkil etganidir. Mazkur Press klubda yoshlarning iqtidorini yanada rivojlantirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, talabalarni qiynayotgan muammo, taklif va istalarini rahbariyatga yetkazishda ko‘prik vazifasini bajarib kelgan.



2016-yilda “Yurt kelajagi” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida faol ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlangan.

2016-yilda “Bunyodkor” yoshlar mehnat harakati faoliyatida faol ishtiroki uchun faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

2017-yil “Dunyo talabalar nigohida” talaba-yoshlar festivalida “Yosh dizaynerlar” ko‘rik-tanlovining bosh tashkilotchisi sifatida ishtiroki uchun Estrada san’atini rivojlantirish jamg‘armasining tashakkurnomasi bilan taqdirlangan.



2017-yilda Respublika yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazi tomonidan tashkil etilgan “Biznes klub”ning 3 oylik bosqichini muvaffaqiyatli tamomlagani uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2017-yilda “INFOLIB – 2017” VI milliy axborot-kutubxona haftaligi doirasidagi tadbirda faol ishtiroki uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2017-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Toshkent Davlat Iqtisodiyot universitetida “O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat va fuqorolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida faol ishtiroki va yuksak saviyadagi ma’ruzasi uchun “Certificate of Recognition” bilan taqdirlangan.

2017-yil O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar kengashi tomonidan tashkil etilgan “Yoshlar ovozi” nomli tahliliy, ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2018-yil Shahrisabz shahrida o‘tkazilgan “ I Xalqaro maqom san’ati” festivalida tashkilotchi sifatida ishtiroki uchun Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani hokimligi tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2018-yilda Rossiya Federatsiyasining Barnaul shahrida MDH tassarufidagi davlatlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan “Добро твори не рады славы, а по велению души” xalqaro yosh badiiy o‘qish ijrochiligi ko‘rik-tanlovi laureati, oliy 1-o‘rin sohibasi sifatida diplom bilan taqdirlangan.

2018-yilda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti va Britaniya elchixonasi hamkorligida o‘tkazilgan “Art Managament module development” mavzusidagi seminardagi faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2018-yilda Farg‘ona viloyatida ilk marotaba o‘tkazilgan “MODEL III” xalqaro konferensiyasida delegat sifatida ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlangan.

2018-yilda Respublika yosh ijodkorlar kengashi tomonidan tashkil etilgan I respublika yosh ijodkorlar forumidagi faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2018-yilda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida o‘tkazilgan “Yuksak badiiy va intellektual yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasida “Eng yaxshi ma’ruzasi uchun” diplom bilan taqdirlangan.

2018-yil Toshkentda o‘tkazilgan Xalqaro Yoshlar sammitida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2018-yil Farg‘ona viloyatida o‘tkazilgan “Turizmni rivojlantirish”ga bag‘ishlangan Yoshlar sammitida “Eng yaxshi loyiha muallifi” sifatida sertifikat bilan taqdirlangan.

2018-yil Innovatsion ta’lim markazida “Zamonaviy buxgalteriya hisobi” kursini a’lo darajada tamomlagani uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2019-yil Toshkent Hayvonot bog‘ida “4-oktabr - Butunjahon hayvonlarni himoya qilish kuni” munosabati bilan o‘tkazilgan “Biz himoya qilamiz!” shiori ostidagi tadbirni yuqori

saviyada tashkil etganligi uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2019-yil O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutida “8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan o‘tkazilgan “Balli qizlar” ko‘rik-tanlovida ishtiroki uchun diplom bilan taqdirlangan.

2019-yil Toshkent shahar Xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” II Respublika tanlovining Toshkent shahar bosqichida o‘z innovatsion loyihasi bilan g‘olib bo‘lganligi hamda respublika bosqichidagi faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.



2019-yil O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi UNWTO Akademiyasi va Xalqaro Kongress va Konvensiyalar Assotsiatsiyasi ICCA tashkilotlari tomonidan birinchi marotaba o‘tkazilgan mahorat darsini ommaviy axborot vositalarida yoritganligi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2019-yil O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi tomonidan o‘tkazilgan Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovida tashkilotchi sifatidagi ishtiroki uchun serifikat bilan taqdirlangan.

2019-yil O‘zbekiston dizaynerlar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan “Tashkent fashion week - 2019” xalqaro moda haftaligi va uning doirasidagi tadbirlardan 40 daqiqalik hujjatli film tarzidagi ko‘rsatuv tayyorlab, ommaviy axborot vositalarida yoritganligi uchun diplom bilan taqdirlangan.

2019-yil “Hunarmand” uyushmasi Toshkent viloyat boshqarmasi tomonidan “Biz Qo‘qonga boramiz” shiori ostida o‘tkazilgan ko‘rgazmada faol ishtiroki uchun diplom bilan taqdirlangan.



2019-yil Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti uchun o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovning Qashqadaryo viloyat bosqichidagi faol ishtiroki uchun Qashqadaryo viloyat Xotin-qizlar qo‘mitasining tashakkurnomasi bilan taqdirlangan.

2019-yil 26, 27, 28 dekabr kunlari “O‘zbekistonda Qozog‘iston yiliga” bag‘ishlangan “Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatlari dialogi” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro seminar-treningda malaka oshirganligi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2020-yil Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tomonidan tashkil etilgan “Ilmiy va innovatsion izlanishlar – magistrlar nigohida” mavzusidagi konferensiyada magistrlik dissertatsiya mavzusi yuzasidan maqolasi hamda tashkiliy ishlardagi faolligi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.



2020-yil “Zamonaviy ilm-fanlar rivojida talaba-yoshlar faoliyatining o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn

konferensiyasidagi faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2020-yil “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijorisini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan “Ta’lim tizimida innovatsion islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida” mavzusidagi ilmiy-nazariy respublika onlayn konferensiyasida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar” shiori ostida o‘tgan “Saylov - 2019” tadbirlarida faol ishtirok etganligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlangan.



2020-yilning 24-aprel kuni Toshkent temir yo‘llari muhandislari institutida “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasidagi faol ishtiroki uchun muallif sertifikati bilan taqdirlangan.

2020-yilning 29-may kuni O‘zbekiston Milliy universitetida “Yevroosiyo makonida ta’limning zamonaviy paradigmal muammolari” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro onlayn konferensiyani tashkil etganligi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

Iroda maktabda “Yosh ijodkorlar”, “Yosh kitobxonlar” nomli to‘garaklariga rahbarlik qilib, o‘quvchilarning ijodini rivojlantirish boradi keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini olib bormoqda. Jumladan, maktab ijodkor yoshlarining almanaxlarini tashkil qildi va ijodkor yoshlarning ijodini Amerika va Turkiya davlatlarida turli almanaxlarda chop etilishida yordam berib kelmoqda.



Iroda Berdiyeva Madaniyat yo‘nalishining suxandonlik sohasida ijod qiladi. Yoshlar o‘rtasida o‘tkazilayotgan madaniy-ma’rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o‘rnak bo‘lmoqda. Bu yo‘lda esa uning kamtarona mehnatlari inobatga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi Qonuniga binoan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan madaniyat yo‘nalishi bo‘yicha taqdirlangan. Iroda Berdiyeva Madaniyat yo‘nalishining suxandonlik sohasida ijod qiladi. Yoshlar o‘rtasida o‘tkazilayotgan madaniy-ma’rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o‘rnak bo‘lmoqda. Bu yo‘lda esa uning kamtarona mehnatlari inobatga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi Qonuniga binoan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan madaniyat yo‘nalishi bo‘yicha taqdirlangan. 2019-2021 yillarda u Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Falsafa

(qo‘llash sohasi) mutaxassisligida “Media kommunikatsiyalarning yoshlar tafakkur uslubiga ta’siri” mavsuzida magistrlik dissertatsiyasi bo‘yicha ilmiy ish olib borgan. Ilmiy faoliyati davomida ommaviy axborot vositalarining bugungi kundagi rivoji, insonlarga ta’siri, salbiy va ijobiy tomonlarini o‘rganib, a’lo darajada himoya qilgan.



Ilmiy ish mavzusi yuzasidan ko‘plab maqola va tezislari respublika nashrlari: jurnal, gazeta va to‘plamlarda chop etilgan. Dissertatsiya ishida birinchi navbatda, ijtimoiy makonda odamlarning o‘zaro muloqot qilish tarixini o‘rganib, odamlarning shaxslararo, davlatlararo munosabatlaridagi dialogiga baho berilgan. Hozirgi davrda bir qator ijtimoiy madaniy texnologiyalar jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, internet tarmog‘i, ommaviy axborot vositalari, televideniya va radioni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Dissertatsiya mavzusida ijtimoiy tarmoqlarda odamlarning bevosita muloqot qilishida bilim, texnologiya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga e’tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, Iroda Berdiyeva o‘zining ilmiy-tadqiqot ishida birinchi, mediakommunikatsiyalarning tarixiga, ikkinchi, uning metodologik jihatlariga, uchinchi esa ijtimoiy hayotdagi amaliy ahamiyatiga e’tiborini qaratgan. Shu uch jihat ilmiy ish mavzusida o‘z uyg‘unligi topgan.

Bugungi kunda, eng katta xavf bu - mediaijtimoiy tarmoqlar orqali turli xildagi tafakkurga zo‘ravonlik o‘tkazish hisoblanadi. Hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri yoshlar tafakkurini himoyalash metodologiyasi, mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Dissertatsiya ishida Iroda Berdiyeva O‘zbekiston yoshlariga qanchadan qancha katta imkoniyatlar yaratilgani, ulardan oqilona va samarali foydalanish, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, hamisha oldinga intilish, bugungi kundagi yod g‘oyalarga aldanmaslik, yoshlar tafakkurini ezgulik va kuchli bilim ila qurollantirish kerakligini ochib bergan.

2023-yilning 18-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida “Yangi Toshkent” shahri loyihasiga tamal toshi qo‘yish marosimi bo‘lib, faollar bilan muloqot o‘tkazildi. Ushbu uchrashuvda Iroda Berdiyeva ham ishtirok etib, o‘z taklif va istaklarini bildirgan. Davlat rahbari tomonidan takliflar qo‘llab-quvvatlanib, Prezident hisobidan tayanch doktaranturaga qabul qilindi hamda “Yangi Toshkent” shahridan unga zamonaviy tikuv korxonasi ochib beriladigan bo‘ldi.

Mana shunday bildirilgan yuksak ishonch va katta mas’uliyatni his qilgan qahramonimiz “Yoshlar tarbiyasida mediasavodxonlik madaniyatini takomillashtirish omillari” mavzusida PhD ilmiy darajasini olish istagida harakat qilmoqda.

Uning hayotdagi shiori: “Muvaffaqiyatning eng muhim omili - bu faqat o‘zingiz!”, “Havas qil - havas qilgudek bo‘lsan!”.



BOZOROVA AZIZA MURODULLO QIZI

Navoiy davlat pedagogika instituti Fizika va texnologiya fakulteti Fizika va astronomiya (matematika) ta’lim yo‘nalishi talabasi

- 20 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan;
- STEAM ta’lim tizmini ommalashtirish rivojlantirish maqsadida turli maqolalar va tezislari chop etilgan;
- “Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun” esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

2004-yil 5-sentabrda Karmana tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Maktabni a’lo baholarga tamomlagan Aziza, universitetga qabul qilindi. O‘qish davomida turli xil tanlovlar va jamoat ishlarida faol qatnashib kelmoqda. Institutda iqtidorli talabalar qatorida Scientific Academy ilm-fan markazining 2023-yil 15-fevral kungi 3-sonli buyrug‘iga asosan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi miqyosida tashkil etilgan “Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun” esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



Xalqaro va Respublika miqyosidagi nufuzli ilmiy nashrlarda aniq va tabiiy fanlarga oid mavzularda 20 dan ortiq ilmiy maqolasi mavjud. Ushbu maqolalarida aniq va tabiiy fanlarlardagi bugungi hayotimizdagi dolzarbligi haqida muhim ma’lumotlar berib o‘tgan.

STEAM ta’lim tizimini ommalashtirish rivojlantirish maqsadida turli maqolalar tezislar chop etgan.

Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika. Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda.



STEAM ta’limi yo‘nalishi va amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. Aziza chop etgan maqolalarida ushbu beshta sohani yagona ta’lim tizimiga birlashtira olgan.

20.02.2023 yilda Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma egasi shuningdek, 07.01.2023 yilda O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini xalqaro tadqiqot dasturlari PISA, PIRLS, TIMMS orqali baholash dasturiy platformasi mavzusidagi guvohnoma va boshqa 5 tadan ortiq guvohnomalar egasi. U o‘zining tirishqoqligi va talabchanligi bilan talabalar o‘rtasida o‘ziga xos mavqega ega.

U o‘zining tirishqoqligi, harakatchanligi va tashabbuskorligi bilan jamoat orasida o‘z hurmatiga ega.



EGAMBERDIYEVA UMIDA AKMAL QIZI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

- "Yil talabasi-2022" Respublika ko'rik tanlovi g‘olibasi;
- "Eng yaxshi kitobxon" ko'rik tanlovi g‘olibi;
- Turkiya “TUMED” Xalqaro bitiruvchilar uyushmasining “Uluslararası Mezunlar Kariyer Inşaası” loyihasi ishtirokchisi;
- 30 dan ortiq ilmiy va uslubiy ishlar, 2 ta nazariy o‘quv qo‘llanma va 1 ta mashqlar to‘plami (ingliz tilida) muallifi;

Egamberdiyeva Umida Akmal qizi 2003-yil 19-mayda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan. 2020-yil Chilonzor tumanidagi 162-maktabni a`lo baholarga tamomlagach chet tillariga hamda, pedagogika sohasiga qiziqishi sababli Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakultetiga o‘qishga qabul qilingan. Hozirgi kunda ushbu universitetning 4-bosqich talabasi sifatida o‘zining ilmiy faoliyatini olib bormoqda.

O‘qish davomida o‘zining bilimi, namunaviy xulqi, liderlik qobiliyati va notiqlik qobiliyati bilan boshqa talabalarga o‘rnak bo‘lgan va bir qancha respublika miqiyosidagi tanlov va konferensiyalarda ishtirok etib g‘olib bo‘lgan.





Egamberdiyeva Umida bir qancha respublika miqyosidagi tanlovlar g‘olibi hisoblanadi Xususan, 2022-yil “**Eng yaxshi kitobxon”** respublika ko‘rik tanlovida 1 va 2-bosqichlarda I va III o‘rinlarni qo‘lga kiritgan. 2022-yil **“Yil talabasi”** tanlovida *“Yilning eng faol targ‘ibotchi talabasi”* nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan. 2023-yil Egamberdiyeva Umida 3 ta ilmiy ishlar sohibi bo‘ldi. **“Famous translators and their creativity”** nomli dunyo tarixida yashab o‘tgan tarjimonlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ingliz tilidagi nazariy o‘quv qo‘llanmasi nashrdan chiqgan. Ushbu yilda “**Academic vocabulary in use Speaking and Writing”** nomli ingliz tilida gapirish va yozish ko‘nikmalarida akademik so‘zlarni

qo‘llash qobiliyatini oshirish uchun mo‘ljallangan mashqlar to‘plami ham nashrda chiqib, Turkiya **“TUMED”** Xalqaro bitiruvchilar uyushmasining **“Uluslararası Mezunlar Kariyer Inşaası”** loyihasida ishtirok etgan va xozirda xorijlik



talabalar ilmiy ishlarini yaratishda foydalanib kelishmoqda. 2023-yil o‘zbek



tarjimonlari hayot va ijod yo‘liga bag‘ishlangan **“Scholars of translation studies”** nomli ishi nashrdan chiqgan.

U.Egamberdiyeva o‘qish va ilmiy faoiyati bilan bir qatorda “Aziya Immunopreparat” MCHJ farmasevtik kompaniyasida sinxron tarjimon sifatida ish faoliyatini olib boradi.

AQSh, Xitoy, Fransiya, Hindiston, Rossiya mamlakatlari taniqli olimlari va mashxur xalqaro farmasevtik korxona vakillari bilan muzokalarda qatnashib, ikki tomon uchun sinxron tarjimon sifatida qatnashgan.



Izlanishlar natijasiga ko‘ra, uning, ingliz tilida 2 ta nazariy o‘quv qo‘llanmasi, 1ta mashqlar to‘plami 30 dan ortiq tarjimonlik va ingliz tili metodikasini o‘rganishga qaratilgan ilmiy maqolalari xorijiy davlatlarning nufuzli jurnallarida chop etilgan. Xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda 15 dan ziyod ma`ruzalar bilan ishtirok etgan.

2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta`lim vazirligi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tasarrufidagi “Izlanish va ijod” ilmiy to‘plamda o‘zining 3ta she`riy tarjimasi chop etilgan. O‘quv jarayonida mamlakatimizda turizm va tarjimonlik sohasidagi mavjud qator muammolarni o‘rganish, tizimli tahlil qilish, ularni bartaraf etish hamda sohani yanada rivojlantirish borasidagi takliflari va

loyihalarini ishlab chiqish jarayonlarida faol ishtirok etgan.

Hozirda U.Egamberdiyeva inliz tili metodikasini rivojlantirish borasida va o‘zbek tarjima tarixini yanada chuqurroq o‘rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Bakalavrni tamomlagach magistratura va doktarantura dissertatsiyalarini aynan shu yo‘nalishlarda yoqlash niyatida. Ilmiy ishlari samarasi o‘laroq, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o‘z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog o‘qituvchilarimiz zamonaviy, yangi va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta`lim-tarbiyaning sifat va samaradorlik darajasini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishlari uchun hissa qo‘shish uning oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri hisoblanadi.



JUMAMURATOV BEXZOD AKRAMJONOVICH

Toshkent davlat texnika universiteti, “Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi tayanch doktoranti

- Uslubiy ishlar va ilmiy ishlar bilan shug‘ullanib, 10 dan ortiq ilmiy ishlar nasr ettirgan;
- 3 ta o‘quv metodik qo‘llanma, OAK tarkibiga kiruvchi jurnallarda 2 ta maqola, hamda EHM dasturi uchun guvohnoma olgan;
- “Kompozit materiallarning radioshaffofligini nazorat qilish usuli va vositasini yaratish” mavzusida ilmiy tadqiqotchilik ishlarini olib bormoqda.

Jumamuratov Bexzod Akramjonovich 1994-yil 21-sentyabrda Qoraqalpog’iston Respublikasi Xo’jayli tumani keneges apj da tavallud topgan. 2001-yilda 23-sonli o’rta maktabning 1-sinfiga qabul qilindi. 2007-yilda 22-sonli o‘rta maktabga o‘tib, ushbu maktabning 9-sinfini imtiyozli shaxodadnoma asosida tamomlagan. So’ngra Xo’jayli tumani pedagogika va psixologiya kollejining “Boshlang’ich ta’lim” mutaxassisligi bo’yicha o’qishga kirib, 2012-yilda ushbu kollejni imtiyozli diplom bilan tamomlab, “Elektr texnika, elektr mexanika



va elektr texnologiyalari” yo’nalishi bo’yicha tahsil olish maqsadida hujjatlarini Toshkent davlat texnika universiteti (ToshDTU) energetika fakultetiga topshirdi.

Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o’tib, mazkur universitetning 1-kursiga qabul qilindi va 2016-yilda ushbu yo’nalishni muvofaqiyatli tamomlagan. 2017-yilda esa ToshDTUning “Elektr texnik majmualar va tizimlar (sanoat)” mutaxassisligi bo’yicha magistratura bo’limiga o’qishga qabul qilindi.

2019-yilda magistratura bo’limini tamomlab, Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat

universitetining elektr energetika kafedrasining taklifiga binoan kafedra assistenti lavozimiga ishga qabul qilingan.







Pedagoglik faoliyati mobaynida “Elektr texnologiyalar asoslari”, “Elektr injinering”, “Standartlashtirish asoslari”, “Elektr texnik materiallar”,”Elektr yuritma asoslari”, “Elektromexanik sistema va komplekslarini boshqarish” fanlaridan amaliy hamda laboratoriya mashg’ulotlari olib borgan.

Bexzod o’quv ishlari bilan bir qatorda uslubiy ishlar va ilmiy ishlar bilan shug’ullanib, 10 dan ortiq ilmiy ishlar nashr ettirgan. Jumladan, 3 ta o’quv metodik qo’llanma, OAK tarkibiga kiruvchi jurnallarda 2 ta maqola, hamda EHM dasturi uchun guvohnoma olgan. Shuningdek kafedra Elektr energetika, Elektr texnika,elektr mexanika va elektr texnologiyalari yo’nalishlari 1–kurs talabariga murabbiylik faoliyatini ham olib borgan.





2022-yil 4-yanvardan Toshkent davlat texnika universitetiga maqsadli tayanch doktorantura bo’limiga qabul qilingan hamda texnika fanlari nomzodi, dotsent D.Eshmuradov rahbarligida “Kompozit materiallarning radioshaffofligini nazorat qilish usuli va vositasini yaratish” mavzusida ilmiy tadqiqotchilik asosida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.



MAXMUDOVA DILBAR RAXMONOVNA

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

- “Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish” nomli monografiyasi chop etilgan;
- 50 ortiq maqolalari AQSh, Angliya, Italiya, Ispaniya, Belgiya, Indoneyziya, Avstraliya, Parij, Rossiya, Hindiston, Qozog‘iston kabi bir qator davlatlarining xalqaro jurnallarda chop etilgan;
- “Ilmiy innovatsion tadqiqotlar yetakchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.
- MDH davlatlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Лучший молодой учёный - 2021” va 2022-yilda ham yuztalik eng yaxshi yosh olimlar o‘rtasida faxrli 1-darajali diplom va ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.
- 2023 da “Ilm-fan sohasidagi ilg‘or tadqiqotlari uchun – Ilm-fan iftixori” nomli ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.
- “Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun” esdalik nishoni bilan taqdirlangan.
- EHM dasturlarini yaratganligi uchun patent guvohnomasiga ega.

Maxmudova Dilbar Raxmonovna 1994-yil 20-iyun kuni Samarqand viloyati Samarqand tumanida tug‘ilgan. Oilali ikki nafar farzandning onasi.

2017-yil Samarqand qishloq xo‘jalik institutining iqtisodiyot va menejment fakultetini tugatgan.

2020-yil Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistraturasining Menejment (tarmoqlar va sohalar) mutaxassisligi bo‘yicha dissertasiya ilmiy tadqiqotlarini na'munali tarzda himoya qilgan. Ilmiy tadqiqotlari davomida “Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish” nomli monografiyasi chop etilgan.



2021-yil Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Menejment mutaxassisligi bo‘yicha tayanch doktoranturasiga o‘qishga qabul qilingan. Hozirda, “Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish” mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Mavzu yuzasidan ellikdan ortiq maqolalari AQSh, Angliya, Italiya, Ispaniya, Belgiya, Indoneyziya, Avstraliya, Parij, Rossiya, Hindiston, Qozog‘iston kabi bir qator davlatlarining Scopus, Web of science, OAK tasarrufidagi nufuzli xalqaro bazalarda indekslangan yuqori Impakt faktorga va scientific journal impact factorga ega bo‘lgan xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Fan tarmog‘ining raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik va menejment yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqot izlanishlarini olib borib, ilmiy yangiliklarini oliy ta'limning bakalavriat bosqichiga mo‘ljallangan “Iqtisodiyot nazariyasi” nomli darslikda keng yoritgan.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish maqsadida, yosh tadqiqotchi ilmiy tadqiqotlarining amaliy natijasi sifatida yangi innovasion “Digital business management” (raqamli biznes boshqaruvi) dasturiy mahsuloti 2022-yil 17-avgust O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. Shuningdek, aynan shu elektron hisoblash mashinalari dasturiy mahsulotining ma’lumotlar bazasini yaratganligi uchun patent guvohnomasi berilgan.



Yosh tadqiqotchi D.Maxmudova nafaqat fan va ilmiy soha rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda, balki jamoatchilik ishlarida ham tashabbuskorligi, intiluvchanligi bilan jamoat tashkilotlaridan biri bo‘lgan tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasida ham faollik ko‘rsatib kelmoqda.

2021-yil 15-yanvar va 22-dekabrda O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi Samarqand viloyat Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi “Xotin qizlar uyushmasi” va “Olima ayollar uyushmasi” tomonidan “Mamlakatimiz taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya sohasini yanada yaxshilash, amaliyotga ilmiy va innovasion yutuqlarni joriy etish yo‘lida olib borayotgan mas’uliyatli va oliyjanob ishlari uchun” faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan.



2021-yil aprelda Rossiyaning “Advance” onlayn kurslari ishtirokchisi.

2022-yil iyundan hozirgi kunga qadar O‘zbekiston Respublikasi miqyosidagi “Uzluksiz ta’limda ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” onlayn o‘quv kurslari a’zosi.



2022-yil 28-iyun Kampus tadqiqotchilar akademiyasi tomonidan o‘tkazilgan “Scopus & SciVal tadqiqotlari” dagi ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.



Shuningdek, tadqiqotchining tirishqoqligi, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi tufayli, 2021-yil 20-21-aprel Qozog‘istonda

MDH davlatlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Лучший молодой учёный - 2021” va 2022-yilda ham yuztalik eng yaxshi yosh olimlar o‘rtasida faxrli 1-darajali diplom va ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



2022-yil 18-dekabr O‘zbekistonning OAK tasarrufidagi yuqori Impakt faktorli xalqaro ilmiy jurnali sifatida tan olingan “Fan va innovasiyalar” nomli jurnali, “O‘zbekistonning taniqli olimlari entsiklopediyasi”, “Mening muvaffaqiyat yo‘lim” biografik kitoblar taqdimoti va olimlar bayrami marosimida “Ilm-fan va innovasiyalar akademiyasi” tomonidan “Ilmiy innovatsion tadqiqotlar yetakchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

2022-yil 13-yanvar “O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi”, “O‘zbekiston Respublikasi innovasion rivojlanish vazirligi”, “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi”, “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi”, “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi”, O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilg‘or tadqiqotlar ilmiy markazi" hamkorligida tashkil etilgan “Xalqaro ilmiy forum” (International scientific forum – 2023)da “Ilm-fan sohasidagi ilg‘or tadqiqotlari uchun – Ilm-fan iftixori” nomli ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



Tayanch doktorant D.Maxmudova 2023-yil 28-fevralda “SCIENTIFIC ACADEMY” Ilmiy tadqiqotlar markazi tomonidan o‘tkazilgan — MDH miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik tanlovida ishtirok etib “Ta’lim sifatini oshirishga ko‘maklashish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, xalqaro e’tirofga erishish, ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish maqsadida ilmiy-ijodiy izlanishlari, istiqbolli va zamonaviy bilim ulashish borasidagi sa’y-harakatlari, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettirishdagi xizmatlari hamda ta’lim jarayonidagi umumiy masalalar bo‘yicha samarali takliflari yoritilgan loyihalari bilan — “Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun” esdalik nishoni, guvohnoma, diplom bilan taqdirlangan.



MIRZAQANDOVA SOHIBJAMOL XOLMO‘MIN QIZI

Navoiy davlat pedagogika instituti fizika-texnologiya fakulteti talabasi

- Respublika fan olimpiadasi g‘olibasi (2021);
- O‘zbekiston Respublikasi “Navoiy” nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi (2022);
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibasi (2022);
- Xalqaro va Respublika tanlovlari sovrindori;
- 10 ga yaqin uslubiy qo‘llanmalari va nufuzli ilmiy nashrlarda 30 dan ortiq ilmiy maqolalari mavjud.

2000-yil 16-noyabrda Navoiy shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori. Respublika yosh olimlar kengashi a’zosi. 10 ga yaqin uslubiy qo‘llanmalari uchun Adliya vazirligining Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan guvohnomalar egasi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli ilmiy nashrlarda aniq va tabiiy fanlarga oid mavzularda 30 dan ortiq ilmiy maqolasi mavjud. Bulardan, Scopus bazalaridagi jurnallarda 1 ta, Web of Science basazidagi jurnallarda 1 ta va Oliy attestasiya komissiyasi e'tirof etgan jurnallarga 10 ta va Respublika va Xalqaro konferensiya jurnallarida 10 dan ortiq tezislarini chop ettirgan.

2020-yil Butun Rossiya ta’lim portalida o‘tkazilgan “Fizika faniga kirish” Xalqaro onlayn olimpiadasida II darajali diplom bilan taqdirlangan.



2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘tkazilgan Respublika fan olimpiadasida astronomiya va astrofizika bo‘yicha II darajali diplom bilan taqdirlangan.

2021-yilda Britaniyaning London shahrida bo‘lib o‘tgan xalkaro ilmiy konferensiyada “Maktab o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati” ga bag‘ishlangan ilmiy ishlanmalari bilan ishtirok etib, bir nechta diplomlar bilan taqdirlangan.

2021-yil Rossiyaning Penza shahrida o‘tkazilgan “Eng yaxshi ilmiy maqola” Xalqaro ilmiy-tadqiqot konkursida II darajali diplom bilan taqdirlangan.

2021-yilda "O‘quvchilarning fizik va astronomik bilimlarini mantiqiy baholash”

nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasini chop ettirgan.



2021-yilda Italiyaning Rim shahrida onlayn o‘tkazilgan koferensiyada “O‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish” maqolasi uchun sertifikatni qo‘lga kiritgan.

2022-yilda Registon ta’lim loyihasining bakalavrlar uchun ta'sis etilgan Registon stipendiyasi tanlovi g‘olibi bo‘lgan.

2022-yil Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tomonidan tashkil etilgan Qozog‘iston Respublikasi Nur-Sulton shahrida o‘tkazilgan “Yil talabasi” tanlovida “Eng yaxshi talaba” ko‘krak nishoni va I darajali diplom bilan takdirlangan.

2022-yilda “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovining shahar va viloyat bosqichida o‘z loyihasi bilan ishtirok etib, g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

2022-yil B2 darajali chet tili sertifikatini qo‘lga kiritdi va fizika fanlarini ingliz tilida o‘qitishni yo‘lga qo‘ydi.

2022-yilda Renessans ilmiy markazi va nashriyot uyi tomonidan o‘tkazilgan “Renessans davri: Ilmiy tadqiqotlar yetakchisi” Xalqaro ilmiy, amaliy tanlovi va Xalqaro konferensiyasida fanga doir maqolalari bilan katnashib, diplom, sertifikat va tashakkurnomalar bilan takdirlagan.

Navoiy viloyati “Registon” o‘quv markazining “Fizika” to‘garagi rahbari. Bugunga qadar 50 dan ortiq o‘quvchilari oliy ta'lim muassasalari talabasi bo‘lish baxtiga muyassar bo‘lgan. Maktabni a’lo darajali shahodatnoma bilan tamomlagan va institut bosqichidagi barcha fanlarni 5 (a’lo) bahoga o‘zlashtirmoqda.

Mahalla yoshlar yetakchisining Ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish masalalari bo‘yicha jamoatchisi bo‘lish bilan bir qatorda, ta’lim yo‘nalishida “Ziyolilar” volontyorlik guruhi sardori ham hisoblanadi.



Mahalla yoshlari o‘rtasida “Zakovat mahalla klubi” ni shakllantirishda faol qatnashgan va ushbu klubning mahalla koordinatori sanaladi. Qolaversa, “Yosh fiziklar” to‘garagi rahbari va ushbu to‘garak orqali mahalladagi uyushmagan yoshlar, hamda ushbu fanga qiziqishi bo‘lgan imkoniyati cheklangan oila farzanlariga ta’lim beradi.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o‘tkazilgan besh bosqichli “Besh tashabbus olimpiadasi” ning birinchi mavsumi doirasida “Zakovat” intellektual o‘yinida mahalla yoshlaridan shakllangan jamoa sardori sifatida qatnashib, Mirzaqandova Sohibjamol Xolmo‘min qizining jamoasi sektor bosqichida ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan yetarlicha tajribaga egaligi tufayli o‘nta elektron o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Intellektual mulk agentligi, Sanoat namunalari bo‘limi tomonidan “EHM uchun dasturi” rasmiy ro‘yhatdan o‘tkazilgan. Shuningdek, “Bolajonlar uchun fizika” nomli videolar to‘plamini institut hamda “Ishonch” mahalla fuqarolar yig‘inining elektron kutubxonasiga elektron shaklda taqdim etgan.



NURMAMATOV SHEROZ ERALIYEVICH

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari, kafedra o‘qituvchisi

- “RISINGPOWER EDUCATION” NTM direktori.
- Ilmiy jurnalda tahrir hay’at a’zosi;
- 50 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan;
- “Innovatsion tadqiqotlar yetakchisi” ko‘krak nishoni sohibi;
- “Astronomiya kursidan masalalar to‘plami” metodik qo‘llanmasi hammuallifi.

Nurmamatov Sheroz Eraliyevich 1996-yil 8-iyulda Toshkent viloyati Bekobod shahrida tavallud topgan. 2002-2011-yillarda Toshkent viloyati Bekobod shahridagi 9–son umumta’lim maktabida, 2011-2014-yillarda Toshkent viloyati Bekobod shahridagi Qurilish va komunal xo‘jaligi kasb-hunar kollejida o‘qigan. 2016-2020-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Fizika-matematika fakulteti “Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr diplomini olgan. U 2020-yil “Astronomiya o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha online fan olimpiadasida sovrinli o‘rinni egallab, Oliy ta’lim vazirligining II darajali diplomi bilan taqdirlangan. O‘qish mobaynida fakultet yoshlar ittifoqi yetakchisi sifatida faoliyat yuritgan.



Fakultet professor-o‘qituvchilari orasida o‘zining xulqi, bilimga chonqoqligi bilan hurmatiga sazovor bo‘lgan. Sh.Nurmamatov o‘zining astronomiya faniga bo‘lgan qiziqishlari tufayli astronomiya fanidan olimpiadalar va respublika amaliy seminarlarida muntazam ishtirok etgan.

Sh.Nurmamatov talabalik davrlarida 2017-2019-yillar fakultet “Yoshlar ittifoqi” yetakchisi bo‘lib faoliyat yuritib, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, fakultet talabalari o‘rtasida ko‘plab musobaqalar tashkil ettirib kelgan.

Sh.Nurmamatov 2019-2020-yillarda O‘z.Res.FA Mirzo Ulug‘bek nomidagi Astronomiya institutida muxandis, so‘ngra 2020-2022-yilgacha kichik ilmiy xodim lavozimida ishlab kelgan.

2021-yildan Toshkent viloyati Bekobod shahrida “RISING POWER

EDUCATION” NTM direktori sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.



Sh.Nurmamatov magistraturani tamomlagach 2022-yildan buyon Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti dekan o‘rinbosari hamda Fizika kafedrasi o‘qituvchisi lavozimida ishlab kelmoqda.



Sh.E. Nurmamatovning astronomiya fani va uning rivojiga bo‘lgan qiziqishlari asnosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan e’lon qilingan “2020-yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat dasturi doirasida talabalar va tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish orqali ularda ta’lim va ilm-fanga qiziqishlarni yanada oshirishga qaratilgan “Uchinchi renessans – yoshlar nigohida” nomli tanlov o‘z loyihasi bilan ishtirok etdi. Mazkur tanlovda Chirchiq davlat pedagogika universiteti bosqichida g‘olib, deb topildi va “Yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga qiziqtirishning noan’aviy usullari” nominatsiyasi bo‘yicha Respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.



Sh.E. Nurmamatov yosh olim hozirda “Astronomiyadan laboratoriya mashg‘ulotlarida optik kuzatuv natijalarini tahlil qilish metodikasi” nomli mavzu bo‘yicha ilmiy-izlanishlar olib bormoqda. Xususan, mavzu yuzasidan xalqaro va respublika jurnallarida 20 ta ilmiy maqola va tezislar nashr ettirdi.



Sh.E.Nurmamatovni Respublika miqyosidagi ilmiy va yosh olimlar ilmiy

anjumanlarida o‘z ma’ruza va 30 dan ortiq maqolalari bilan muntazam ravishda qatnashib kelayotganligi, shuningdek fizika va astronomiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Astronomiya kursidan masalalar to‘plami” nomli metodik qo‘llanmaga hammuallifligini inobatga olgan holda uni, iqtidorli va kelajagi porloq yoshlardan biri sifatida e’tirof etish mumkin.



Sh.E.Nurmamatov ilmiy-tadqiqotlari natijalariga asosan “Fan va innovatsiyalar” akademiyasining “Innovatsiyon tadqiqotlar yetakchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganligi uning ilmiy potensiali yuqori ekanligini anglatadi.



Sh.E.Nurmamatov fanga bo‘lgan qiziqishlari, uning amaliy jihatiga bo‘lgan kreativ yondashuvlari bilan birga sportning futbol turida yaxshi darvozabon, jamoat ishlari va tadbirlarining faol ishtirokchisi ekanligi bilan ham o‘qituvchilar orasida hurmatga sazovor.





RASHIDOVA NILUFAR NORMUROD QIZI

Navoiy davlat pedagogika instituti fizika-texnologiya fakulteti talabasi

- Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori.
- Respublika yosh olimlar kengashi a’zosi.
- 10 ga yaqin uslubiy qo‘llanmalari uchun Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan guvohnomalar egasi.
- 25 dan ortiq ilmiy maqolasi mavjud;
- 2021-2022-yillarda “Yil talabasi” ko‘rik tanlovi g‘olibasi.
- “O‘quvchilarning fizik va astronomik bilimlarini mantiqiy baholash” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasini chop ettirgan.

2001-yil 10-avgustda Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori. Respublika yosh olimlar kengashi a’zosi. 10 ga yaqin uslubiy qo‘llanmalari uchun Adliya vazirligining Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan guvohnomalar egasi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli ilmiy nashrlarda aniq va tabiiy fanlarga oid mavzularda 25 dan ortiq ilmiy maqolasi mavjud. Bulardan, Scopus bazalaridagi jurnallarda 1 ta, Web of Science basazidagi jurnallarda 1 ta va Oliy attestasiya komissiyasi e’tirof etgan jurnallarga 10 ta va Respublika va Xalqaro konferensiya jurnallarida 10 dan ortiq tezislarini chop ettirgan.

2021-yilda “O‘quvchilarning fizik va astronomik bilimlarini mantiqiy baholash” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasini chop ettirgan.



2021- yildan Barkamol avlod bolalar ijodiyot uyida STEAM to‘garagida o‘qituvchi bo‘lib kelmoqda.

2021-yilda institutda o‘tkazilgan “Yil talabasi” ko‘rik tanlovining “Eng yaxshi targ‘ibotchi” nominatsiyasida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

2022-yilda ham “Yil talabasi” ko‘rik tanlovida “Eng yaxshi ijodkor” nominatsiyasida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

2022-yilda Renessans ilmiy markazi va nashriyot uyi tomonidan o‘tkazilgan “Renessans davri: Ilmiy tadqiqotlar yetakchisi” Xalqaro ilmiy, amaliy tanlovi va konferensiyasida fanga doir maqolalari bilan qatnashib, diplom, sertifikat va tashakkurnomalar bilan taqdirlagan.

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi bakalavriat uchun ta’sis etilgan Navoiy nomli davlat stipendiasi sohibi bo‘ldi.

Hozirgi kunda Alisher Navoiy nomidagi 19-IDUM da o‘qituvchi vazifasini bajarib kelmoqda.



Maktabni a’lo darajali shahodatnoma bilan tamomlagan va institut bosqichidagi barcha fanlarni 5 (a’lo) bahoga o‘zlashtirmoqda.



Mahalla yoshlar yetakchisining Ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish masalalari bo‘yicha jamoatchisi bo‘lish bilan bir qatorda, ta’lim yo‘nalishida “Ziyolilar” volontyorlik guruhi sardori ham hisoblanadi.



Mahalla yoshlari o‘rtasida “Zakovat mahalla klubi” ni shakllantirishda faol qatnashgan va ushbu klubning mahalla koordinatori sanaladi. Qolaversa, “Yosh fiziklar” to‘garagi rahbari va ushbu to‘garak orqali mahalladagi uyushmagan yoshlar, hamda ushbu fanga qiziqishi bo‘lgan imkoniyati cheklangan oila farzanlariga ta’lim beradi.



Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o‘tkazilgan besh bosqichli “Besh tashabbus olimpiadasi” ning birinchi mavsumi doirasida “Zakovat” intellektual o‘yinida mahalla yoshlaridan shakllangan jamoa sardori sifatida qatnashib, Rashidova Nilufar Normurod qizining jamoasi sektor bosqichida ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan yetarlicha tajribaga egaligi tufayli o‘nta elektron o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Intellektual mulk agentligi, Sanoat namunalari bo‘limi tomonidan “EHM uchun dasturi” rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Institut hamda “Ishonch” mahalla fuqarolar yig‘inining elektron kutubxonasiga elektron shaklda taqdim etgan. Institut va fakultetda tashkil etiladigan turli tadbirlarda muntazam ishtirok etishi bilan bir qatorda, xalqaro konferensiya, forum, vebinar va seminarlarda ishtirok etib, qator sertifikat va tashakkurnoma bilan taqdirlangan



SADULLAYEVA MUXLISA XAMRAYEVNA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti va Toshkent moliya instituti akademik litseyi o‘qituvchisi

- Nufuzli ilmiy jurnal va konferensiyalarda ko‘plab ilmiy maqolalari nashr etilgan;
- Turkiyaning Bosfor universitetida 10 kunlik o‘quv mashg‘ulotida qatnashib, sertifikat bilan taqdirlangan.
- Ona tili va adabiyot bo‘yicha tuman olimpiadasi g‘olibasi.
- O‘zbek, rus va ingliz tillarini mukammal biladi, shuningdek fors va arab tillarini o‘rganmoqda.

Sadullayeva Muhlisa Xamrayevna 1998-yil 15-may kuni Toshkent shahrida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. 2004-yil Xorazm viloyati Gurlan tumani 21-sonli umumta’lim maktabiga o‘qishga qabul qilingan. 6-sinfdan boshlab Gurlan tumanidagi 42-Ayrim fanlar chuqur o‘rgatiladigan ixtisoslashgan maktabda tahsil olgan.



Maktabdagi o‘quv faoliyati davomida ona tili va adabiyot faniga o‘zgacha mehr qo‘ygan Muhlisa mazkur fan bo‘yicha o‘tkazilgan “Bilimlar bellashuvi”da muntazam ravishda ishtirok etgan. Gurlan tumanidagi maktablar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan ona tili va adabiyoti fanidan olimpiadasida tuman bosqichining faxrli I o‘riniga loyiq deb topildi.



Maktabni muvaffaqiyatli tugatib, Gurlan tumanidagi kasb-hunar kollejining pedagogika yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilingan. Kollejni tamomlagach, hujjatlarini Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetiga topshirdi. Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan Muhlisa mazkur universitetning O‘zbek filologiyasi fakultetiga qabul qilindi. Universitetda maxsus fanlarni yaxshi o‘zlashtirdi. Filologiya fanlari nomzodi, prof. Abdulla Ulug‘ov rahbarligida

ilmiy konferensiyalarda o‘z maqolalari bilan ishtirok etdi.





2021-yil “Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” hamda Lev Tolstoyning “Anna Karenina” romanlarida ayol obrazi talqini” mavzusida bitiruv malakaviy ishini a’lo bahoga yoqlab, bakalavr darajasini oldi. Shu yilning o‘zidayoq Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Magistratura bo‘limiga Adabiyotshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi. Hozirda “O‘zbek hikoyachiligida oila mavzusi talqini (Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov, Isajon Sulton hikoyalari asosida)” mavzusida magistrlik dissertatsiyasining himoyasiga tayyorgarlik ko‘rmoqda.



Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi yuzasidan 2022-yilning 3-iyunida bo‘lib o‘tgan “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida “O‘zbek hikoyachiligida oila mavzusi talqini (Abdulla Qahhorning “Bemor”, “Anor” hikoyalari misolida) nomli maqolasi hamda “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnalining 2022-yil 8-sonida “Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ayol obrazi talqini (Shukur Xolmirzayevning “Bulut to‘sgan oy”, Isajon Sultonning “Go‘zal” hikoyalari asosida)” nomli ilmiy maqolasi chop etildi.

2022-yil “SSP-BIZNES HAMKOR” HTM tomonidan tashkil etilgan dasturda qatnashib biznes loyihasi uchun sertifikat bilan mukofotlangan.

2022-yilning 7-iyun sanasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Turkiyaning



Istanbul shahridagi Bosfor universiteti o‘rtasida 2021-yil imzolagan hamkorlik memorandumi doirasidagi “Akademik almashinuv” loyihasi asosida 10 kunlik o‘quv mashg‘ulotida qatnashib, Bosfor universiteti tomonidan sertifikat bilan taqdirlangan.

Hozirgi kunda Muhlisa magistraturada tahsil olish bilan birga Toshkent moliya instituti akademik litseyida yosh avlodga ona tili va adabiyoti fanidan dars berib kelmoqda.

Muhlisa o‘zbek, rus va ingliz tillarini mukammal biladi, shuningdek fors va arab tillarini o‘rganmoqda.



SAMANDAROVA NOZIMA ILHOMJON QIZI

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

- “Abdulla Avloniyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari” nomli metodik qo‘llanmasi va ‘‘Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodi janrlarini o‘rganishda innovatsion usullardan foydalanish’’ nomli metodik qo‘llanmalari nashr etilgan.
- Abdulla Avloniy nomidagi maxsus stipendiya sohibasi;
- Universitetning Boshlang‘ich ta’lim fakultetida Xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha Yoshlar yetakchisi;
- “Kelajak ilmli qizlar hamjamiyati” ta’lim almashinuvi dasturini tamomlagan.

Samandarova Nozima Ilhomjon qizi 2002-yil 19-avgustda Toshkent viloyati Bekobod shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Ma’lumoti tugallanmagan oliy.

2008-2020-yillarda Bekobod shahar 9-sonli davlat ixtisoslashtirilgan maktabining o‘quvchisi.



Samandarova Nozima Ilhomjon qizi 2017-yildan boshlab hozirga qadar quyidagi jamoat ishlarida faoliyat yuritib kelgan:

1) 2017-2018-yillarda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi 9-sonli davlat ixtisoslashtirilgan maktabi Kengashi bosh sardori;

2) 2019-2020-yillarda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Bekobod shahar Kengashi bosh sardori;

3) 2020-2021-yillarda ASIA CONSULT kompaniyasi bosh menedjeri;

4) 2021-2022-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat yuritgan.



5) Hozirgi kunda Nozima Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” fakultetida

Xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat yuritmoqda.



Nozima o‘zining faoliyati mobaynida turli xil tanlovlarda ishtirok etib, bir qator sovrinlarni qo‘lga kiritgan. Jumladan:

- 2018-yil oktabr oyida “Zulfiya nomidagi davlat mukofoti” ga Bekobod shahar bo‘yicha nomzodlarni saralash bosqichida 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, viloyat bosqichida eng namunali ishtirokchi sifatida taqdirlangan.



- O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashi tomonidan “Vatan, do‘stlik va baxtli bolalik uchun” shiori ostida o‘tkazilgan Respublika anjumanida o‘quv treninglardagi munosib ishtiroki uchun “Sertifikat’’ bilan taqdirlangan.
- 2022-yilda Nozima Samandarovaning ‘‘Abdulla Avloniyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari’’ nomli metodik qo‘llanmasi nashrdan chiqqan.



- U Abdulla Avloniy ijodi bo‘yicha tadbirlarda ishtirok etib, Avloniyning ibratli hikoyalarini tengdoshlariga sahna asarlari orqali to‘g‘ri so‘zli, mehnatsevarlik, ilm izlash kabi qadriyatlarni singdirishda peshqadamlik qilib keldi. Universitetimiz tomonidan ta’sis etilgan “Abdulla Avloniy nomidagi maxsus stipendiyasi” nomzodi bo‘ldi.



- Abdulla Avloniy sharafiga tashkil etilgan maqolalar tanlovida faol ishtirok etib kelmoqda. Bugungi kunga qadar Nozima Samandarovaning Germaniya, Zenlandiya, Turkiya, Chexiya, Rossiya kabi xorij davlatlarda ilmiy maqolalari chop etilgan. Bulardan: Germaniyada ‘‘Humanity and Sciensce Congress-2022’’ jurnalida ‘‘Abdulla Avloniy – kuchli dramaturg”, Turkiyada ‘‘International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences’’ jurnalida ‘‘Abdulla Avloniy Ma’rifatparvarlik Adabiyoti darg‘asi”, Chexiyada ‘‘GALAXY International Interdisciplinary Research Jurnal’’ (GIIRJ) jurnalida ‘‘Life and work of Abdulla Avloniy’’, Yangi Zenlandiyada ‘‘The Bible`s Viewpoint and Their Creativity’’ jurnalida ‘‘This article discusses the life-styles of our country`s great poets A.Avloniy and Marg‘on Jumabayev and their contributions to our literature and their books on raising the younger generation’’ nomli maqolalari dunyo yuzini ko‘rgan.
- XX asr “Ta’lim va mutaxassislik” Xalqaro ko‘rgazmasida munosib ishtirok etib, Sertifikat bilan taqdirlangan.
- 2022-yilda ‘‘Kelajak ilmli qizlar hamjamiyati’’ ta’lim almashinuvi dasturini mufavvaqiyatli tamomlab sertifikat bilan taqdirlangan.
- 2022-2023-yillarda fakultetda o‘tkazilgan “Yil talabasi” ko‘rik tanlovining

“Yilning eng yaxshi ijodkor talabasi” yo‘nalishi bo‘yicha 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan.



- 2023-yilda Nozima Samandarovaning ‘‘Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodi janrlarini o‘rganishda innovatsion usullardan foydalanish’’ nomli metodik qo‘llanmasi nashrdan chiqqan.



- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi Buxoro Davlat Pedagogika Institutida “Boshlang‘ich ta’limda xalqaro tajribalar: Yangi avlod darsliklari, milliy dastur va raqamli texnologiyalar integratsiyasi” xalqaro ilmiy-amaliy konfirensiyada ishtiroki uchun Sertifikat bilan taqdirlangan.



- “Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konfirensiyada ishtiroki uchun Sertifikat bilan taqdirlangan.
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi Termiz Davlat Pedagogika Institutida Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim: Innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda eng sara maqolasi bilan ishtiroki uchun Sertifikat bilan taqdirlangan.
- “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnalining 2023-yil 5-sonida chop etilgan “COMMUNICATIVE METHODS OF COMMUNICATION WITH STUDENTS” nomli ilmiy maqolaga mualliflik qilgani uchun Nozima Samandarovaga Guvohnoma topshirilgan.
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Ta’lim Vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Innovatsiyalarni Rivojlantirish Vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti “TARBIYA FANI: YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislar to‘plamida ishtiroki uchun Sertifikat bilan taqdirlangan.



SAYFULLAYEVA DILNOZA DILSHOD QIZI

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “O‘zbek va rus tillari” kafedrasi o’qituvchisi

- Ona tili va adabiyoti fanidan o‘tkazilgan bilimlar bellashuving respublika bosqichida III o‘rinni egallagan (2012-y.) va boshqa ko‘plab Respublika tanlovlari ishtirokchisi va sovrindori;
- Maqolalari nufuzli ilmiy jurnallarda, xalqaro va respublika konferensiyalari to‘plamlarida chop etilgan;
- Rus va ingliz tillarini mukammal biladi, shuningdek, fors va arab tillarini o‘rganmoqda.

Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi 1999-yil 7-sentabr kuni Toshkent shahrida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. 2005-yil Toshkent shahridagi Ijtimoiy yo‘nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasi (hoz. Filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim maktabi)ga o‘qishga qabul qilingan.



Maktabda o‘qiyotgan vaqtlaridanoq ona tili va adabiyot faniga o‘zgacha mehr qo‘ygan Dilnoza mazkur fan bo‘yicha o‘tkazilgan “Bilimlar bellashuvi”da muntazam ravishda ishtirok etgan. Gimnaziyada ona tili va adabiyoti fanidan dars bergan malakali pedagoglar Mo’mina opa Ibragimova, Muxtabar opa Maraimova, Sharofat opa Toshmirzayeva hamda Muhabbat opa Mirboboyevalardan olgan bilimlari tufayli ketma-ket uch yil mobaynida Toshkent shahar bosqichining faxrli I o‘ringa loyiq deb topildi. 2013 yilda esa respublika bosqichida faxrli III o‘rinni egallab, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining diplomi hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlangan.


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
Elmurodova Dilnoza Dilshod qizi
Ona tili va adabiyoti fani
bo‘yicha 2012 yil bilimlar bellashuvining respublika bosqichida
III o‘rinni egallaganligi uchun III darajali
DIPLOM
bilan taqdirlanadi
VAZIR T.SHIRINOV


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
Toshkent shahri M.Ulug‘bek tumani Filologiya fanlariga ixtisoslashgan maktab
6-sinf o‘quvchisi
Elmurodova Dilnoza Dilshod qizi
Ona tili va adabiyot fani bo‘yicha
2011 yil bilimlar bellashuvining respublika bosqichida
III o‘rinni egallaganligi uchun III darajali
DIPLOM
bilan taqdirlanadi
VAZIR A. MARAXIMOV

Maktabni a’lo baholar va namunali xulq bilan tamomlab, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi Shayxontohur akademik litseyiga imtiyoz asosida o‘qishga qabul qilingan. Litseyni tamomlagach, 2017-2021-yillar oralig‘ida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil oldi. Bakalavrlik davrida filologiya fanlari doktori Munavvara Qurbonova rahbarligida



“Ko‘rish imkoniyati cheklangan talabalar uchun tilshunoslik fanlari bo‘yicha audiokitob ta'minotini yaratish” mavzusidagi ilmiy grantlarda qatnashib, o‘z bilim va malakalarini mustahkamlab bordi. Filologiya fanlari doktori Iqboloy Adizova rahbarligida esa shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar nashr ettirdi.

2020 yilda O‘zbekiston Ixtirochi ayollari uyushmasi tomonidan o‘tkazilgan I Respublika tanlovida ishtirok etgan.

2021-yil “Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida she‘r nav‘lari” mavzusida bitiruv malakaviy ishini a‘lo bahoga yoqladi. Shu yilning o‘zidayoq Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Magistratura bo‘limiga Adabiyotshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi.



Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi yuzasidan 2022-yilning 3-iyunida bo‘lib o‘tgan “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida “Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” asarida sarlavha masalasi” nomli tezisi hamda “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnalining 2022-yil 8-sonida “Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” asari haqida mungli satrlar” nomli ilmiy maqolasi chop etildi.

Magistraturada tahsil olish bilan birga PIIMA qoshidagi Shayxontohur ixtisoslashtitilgan maktabda yosh avlodga ona tili va adabiyoti fanidan dars berdi.



2023 yilda filologiya fanlari doktori, professor U. Rasulova rahbarligida 70230502 Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha magistr darajasini olish

uchun yozilgan “Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” romanida bolalar obrazi” dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qildi.



Mazkur tadqiqot ishida “Mungli ko‘zlar” romanidagi davr va inson ziddiyati, oilada farzandlar tarbiyasi masalasi, adib nasrida oila ma’naviyati masalasi batafsil yoritilgan.

Dilnoza o‘zbek, rus va ingliz tillarini mukammal biladi, shuningdek, fors va arab tillarini o‘rganmoqda.

Hozirgi kunda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “O‘zbek va rus tillari” kafedrasi o’qituvchisi lavozimiga ishga qabul qilindi.

Oilali.



SOBIROV
JAVOXIR
XAYRULLA O‘G‘LI

Urganch davlat Universiteti
Geografiya Ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

- Qo’sho’pir tumani 40-son umum ta’lim maktabi o’qituvchisi
- Urganch davlat Universiteti Talabalar kengashi a’zosi
- O’quv qo’llanma va uslubiy qo’llanmalar muallifi.
- EHM dastur va patent muallifi.
- 20 dan ortiq ilmiy maqolalar va tezislar muallifi
- www.GeoOlam.uz web sayti asoschisi.

Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li 2001-yil, 19-dekabr sanasida O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani Oqdarband qishlog‘ida tug‘ilgan 2009-yilda Qo‘shko‘pir tumanida joylashgan 27-son umum ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindim. U yerda 11 yil ta'lim olib, 2020-yilda Qo‘shko‘pir tumani Oqdarband qishlog‘idagi 27-son umum ta’lim maktabini a’lo baholarga tamomlab Urganch davlat universiteti geografiya ta’lim yo‘nalishiga davlat granti asosida talabalikka qabul qilingan.

Universitetga kirishdan oldin ko‘plab musobaqa va ko‘rik tanlovlar hamda olimpiadalarda ishtirok etib yuqori natijalarni qo‘lga kiritgan.



Masalan, Geografiya bo‘yicha bilimlar bellashuvi, fan olimpiadalarida muntazam qatnashib, tumanda 1-,2-,3-o‘rinlar bilan viloyat bosqichlarida faol qatnashgan. 2019-yilda esa Viloyat bosqichida faxrli 3-o‘rinni qo‘lga kiritib, bronza medali sohibi bo‘lgan va respublika bosqichiga yo’llanma olgan. Geografiya fan oyliklarida o‘zi yasagan ko‘rgazmali qurollarim bilan qatnashib, faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. 2018-

yilda “Yuksak ma’naviyatli avlod” ko‘rik tanlovining tuman bosqichida 1-o‘rinni egallagan va viloyat bosqichida faol ishtirok etgan. 2020-yilda “Tabiat–o‘z uyimiz” mavzusida o‘z ijodiy ishlari bilan qatnashib, tuman xalq ta'limi bo‘limi tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlangan. Yana o‘qish va jamoat ishlaridagi faolligim sabab, Qo‘shko‘pir tumani hokimi tomonidan ko‘plab tashakkurnoma va estalik sovg‘alari



qo‘lga kiritgan.

Hozirda Urganch davlat universiteti 3-bosqich talabasi. Ko‘plab yuqori natijalarga erishgan. Dunyodagi nufuzli xalqaro jurnallarda ko‘plab maqola va tezislar chop ettirgan. Respublika miqyosidagi ko‘plab tanlovlarda faol ishtirok etib faxrli o‘rinlarni egallagan.

2020-yilda “Yil talabasi” tanlovining Urganch davlat universiteti fakultet bosqichida faxrli o‘rinni egallagan.

2021-2022-yillarda ko’plab maqola va tezislarini respublika hamda xorijiy davlatlarning jurnal va anjumanlarida chop qildirgan.

2022-Yil 10-avgust kuni MDH miqyosida o‘tkazilgan



“TASHABBUSKOR ISLOHOTCHI” esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

2022-yili dekabr oyida Fan va innovatsiyalar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan **"OLIMLAR BAYRAMI"** da “Ilm-fan targ‘ibotchisi” esdalik nishoni sohibi bo‘lgan.

2023-yili “Ulug‘bek vorislari” tanlovining tuman bosqichida faol ishtirok etgan.

2023-yili 28-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan tashkil qilingan «Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o‘rni» mavzusidagi respublikasi ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etdi.

2023-yili 27-28-aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Belarus Respublikasi ta’lim vazirligi, Al-Xorazmiy Nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Belarusiya davlat informatika va radioelektronika universiteti, “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnali hamkorligida o‘tkazilgan “Raqamli texnologiyalar: sohalarda amaliy joriy etishning muammo va yechimlari” mavzusidagi xalqaro qo‘shma ilmiy-texnik konferensiyada ishtirok etdi.



Hozirgi kunda uslubiy qo’llanmalar va ilmiy maqolalar yozish va ularni keng ommaga yetkazish ustida ishlar olib bormoqda.



САРЫБАЕВ БАХЫТЛЫ АБДЫЛЛАЕВИЧ

Ибрайым Юсупов атындағы дөретиўшилик мектебинде қарақалпақ тили ҳәм әдебияты пәни оқытыўшысы

- Өзбекстан ҳәм Қарақалпақстан Жазыўшылар аўқамының ағзасы;
- Дөретиўши муғаллим-2021” республикалық әнжуманына қатнасады;
- 2022-жылдан Өзбекстан ҳәм Қарақалпақстан Жазыўшылар аўқамының ағзасы.

Сарыбаев Бахытлы Абдыллаевич 1989-жылы 29-августта Шымбай районында туўылған. 1996-2005 – жыллары Шымбай районлық 14-санлы улыўма орта билим бериў мектебинде, 2005-2008-жыллары Шымбай педагогикалық колледжинде ЭЭМ операторы қәнигелигинде билим алады.



2009-2010 – оқыў жылында Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университетиниң қарақалпақ филологиясы факультетине оқыўға қабыл етилип, 2013-жылы тамамлап бакалавр дәрежесин алған болса, 2013-2015-жыллары усы оқыў дәргайының магистратура бөлими Әдебияттаныў (қарақалпақ әдебияты) қәнигелиги бойынша оқыўын даўам еттиреди.



Дәслепки мийнет жолын Елликқала районлық Халық билимлендириў бөлимине қараслы 61-санлы улыўма орта билим бериў мектебинде қарақалпақ тили ҳәм әдебияты

пәнинен оқыўшыларға сабақ бериўден баслайды.



2017-2018-оқыў жылынан баслап Тақыятас районы Халық билимлендириў бөлимине қараслы 9-санлы улыўма орта билим бериў мектебинде қарақалпақ тили ҳәм әдебияты пәнинен оқыўшыларға билим береди.



2021-жыл 28-сентябрьде Ташкент қаласында өткерилген “Дөретиўши муғаллим-2021” республикалық әнжуманына қатнасады.

Ҳәзирги күнде Ибрайым Юсупов атындағы дөретиўшилик мектебинде қарақалпақ тили ҳәм әдебияты пәни оқытыўшысы болып ислеп атыр.



Қосық ҳәм публицистикалық мақалалары “Әмиўдәрья” журналында, “Еркин Қарақалпақстан”, “Қарақалпақстан мәденияты”, “Қарақалпақ әдебияты”, “Қарақалпақстан жаслары”, “Устаз жолы” газеталарында жарық көрип келмекте. “Туўысқан” атлы туңғыш китабы 2022-жылы “Жети ықлым” баспасынан басылып шығады.



2022-жылдан Өзбекстан ҳәм Қарақалпақстан Жазыўшылар аўқамының ағзасы.





TURSUNQULOVA MAXFUZA TO‘LQIN QIZI

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining tayanch doktoranti

- 10 dan ortiq maqola va tezislari nashr etilgan;
- “BMTest” (Bilimlarni Mustahkamlash Testi) deb nomlangan elektron ilova yaratgan;
- O‘zbekiston yosh ijodkorlarining Respublika seminarida “Bolalar adabiyoti” yo‘nalishi bo‘yicha 1-o‘rin sohibasi.

Tursunqulova Maxfuza To‘lqin qizi 1995-yil 30-may kuni Toshkent shahri Olmazor tumanida tavallud topgan. 2011-yil Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 278-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinfini a’lo baholarga tamomlab, shu yili 1-Toshkent Pedagogika kolleji boshlang‘ich ta’lim fakultetining 1-kursiga qabul qilingan. 2014-yili ushbu kollejni imtiyozli diplom bilan tamomlab, 2015-yil Toshkent shahridagi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining boshlang‘ich ta’lim fakulteti 1-bosqich talabasi bo‘ldi.



O‘qish faoliyati davomida o‘zining namunali xulqi, keng fikrlashi, a’lo baholari bilan boshqa tengdoshlaridan ajralib turdi. Talabaligining ilk yillaridanoq ona tilimizni o‘rganish va o‘rgatish metodikasi bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalari yuritilgan maqola va tezislarini Respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalarda e’lon qila boshladi. Tilshunoslikka qiziqishlari ortidan borib, 2018-yili Navoiy viloyatida “Ona tili va bolalar adabiyoti” fanidan o‘tkazilgan Respublika fan olimpiyadasida faxrli 2-o‘rinni egallagan.



4-kursda “O‘zbek tilidagi so‘z yasash usullari” mavzusidagi diplom ishini muvaffaqiyatli himoya qildi. Diplom ishi

mavzusi yuzasidan olib borgan ilmiy izlanishlari orqali muallif va ustozlari bilan hammualliflikda jami 10 ta maqola va tezislarini e’lon qildi. Shuningdek, boshlang‘ich sinfda foydalanish uchun “BMTest” (Bilimlarni Mustahkamlash Testi) deb nomlangan elektron ilova yaratdi.



2019-yili bakalavrni tamomlab, “Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi” (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi bo‘yicha davlat granti asosida universitet magistranti bo‘ldi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlari yuzasidan 15 ga yaqin maqola va tezislari e’lon qilindi.



2020-yili magistr bo‘lishiga qaramay, universitet rektori va fakultetdagi professor-o‘qituvchilari tavsiyasi asosida “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasida stajor-o‘qituvchi lavozimida ishlab “Ona tili o‘qitish metodikasi”, “Ona tili praktikumi”, “Bolalar folklori” kabi fanlardan kunduzgi va sirtqi guruhlarda dars bera boshladi. Yosh bo‘lishiga qaramay, o‘zining layoqati va tirishqoqligi bilan talabalari mehrini qozondi. 2021-yili magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib magistraturani a’lo baholar bilan imtiyozli diplomga tamomladi.



Shundan so‘ng o‘zidagi chet tillariga bo‘lgan qiziqishlarini asosida bilimlarini oshirish va mustahkamlash maqsadida ingliz va turk tillarini o‘rgana boshladi. 1 yil davomidagi harakatlari samara berib, 2022-yil ingliz tili va turk tili bo‘yicha B1 darajadagi xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritdi. Bundan tashqari u shu yili prezidentimiz tashabbuslari bilan tashkil qilingan Saida Mirziyoyeva muallifligidagi boshlang‘ich sinf darsliklarini yangilash va zamonaviylashtirish bo‘yicha “Yangi avlod darsliklari” loyihasida qatnashib, 1-2-3- sinflar uchun matematika va tabiiy fanlar uchun yaratilgan didaktik o‘yinlarga o‘zining g‘oyalari bilan mualliflik qildi.

Hozirgi kunda Maxfuza TursunqulovaT.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining tayanch doktorantidir. Pedagogika fanlari doktori. Professor Muhammadjon Quronov ilmiy rahbarligida “Didaktik o‘yinlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy-tadqiqotishlarini olib bormoqda. Jumladan, 2008-yilda O‘zbekiston yosh ijodkorlarining Respublika seminarida “Bolalar adabiyoti” yo‘nalishi bo‘yicha 1-o‘rin sohibasi bo‘lgan. Aynan shu yili Koreya va O‘zbekiston hamkorligidagi I Xalqaro rassomlar tanlovida faol qatnashib, sertifikat va sovg‘alar bilan taqdirlangan.



TOJIBOYEVA GULNOZ ZOHIDULLO QIZI

Bolalar yozuvchisi, rassom, tarjimon, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, Yozuvchilar uyushmasining “Bolalar va o‘smirlar adabiyoti” kengashi rais o‘rinbosari

- O‘zbekiston Badiiy akademiyasining Badiiy Ijodkorlar uyushmasi a’zosi;
- Bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan 13 ta kitob muallifidir;
- Uning ertak va hikoyalari rus, qozoq, qirg‘iz, vetnam, ingliz, koreys, belorus tillariga tarjima qilingan;
- YUNESKO qoshidagi Butunjahon Yozuvchilar uyushmasining “Vilyam Shekspir” nomidagi Xalqaro mukofoti bilan taqdirlangan.

Tojiboyeva Gulnoz 2009-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti uchun tanlovning “Adabiyot” yo‘nalishida o‘zining ijodiy ishlari va 2006-yilda ustozi Tohir Malikning “oq yo‘li” bilan nashr etilgan “O‘rmon ertaklari” nomli birinchi kitobi bilan qatnashgan. U tanlovning tuman va shahar bosqichlarini g‘olibasi, respublika bosqichining ishtirokchisi bo‘lgan.

2008-yilda Gulnozning bolalarga atalgan ikkinchi “Kuladigan quyoncha” nomli ertaklar to‘plami nashrdan chiqdi.

Gulnoz Tojiboyeva kollejni tamomlagach, PageMaker, Adobe CorelDraw, Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, Adobe InDesign, HTML va CSS kabi kompyuter dasturlari bo‘yicha malaka oshirib, professional mutaxassis sifatida rasmiy sertifikat olgan. Til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi katta bo‘lgani sababli rus va ingliz tillari bo‘yicha qo‘shimcha shug‘ullana boshladi. 2009-2010-yillardan boshlab o‘zi yozgan ertak va topishmoqlarini rus tiliga tarjima qilishni o‘rgandi.

Nafaqat adabiyot, san’at va IT tizimi, balki siyosiy jarayonlarga ham befarq bo‘lmagan G.Tojiboyeva 2012-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining “Parlamentarizm bilimdoni” Respublika tanlovida faol ishtirok etib, diplom bilan taqdirlandi.

Gulnoz Tojiboyeva O‘rta Osiyo mamlakatlarining fojiasiga aylangan muammo — Orol dengizining qurishi va ushbu muammoning “fantastik yechimi” asosiy g‘oya qilib olingan “Jayxun va Alanga” nomli ertak-film ssenariysi bilan 2014 yili Janubiy Koreyada o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo va Koreya davlatlarining miflari, ertaklari va qahramonlik eposlari asosida yaratilgan ssenariylar Xalqaro tanlovi”da 1-o‘rinni egalladi.

Gulnozning ish faoliyati 2010-yildan “Bekajon” gazetasida muxbir, tarjimon va fotomuxbir sifatida boshlangan bo‘lib, 2012-2013-yillarda “Chashma-Print” nashriyotida

rassom-dizayner sifatida davom etdi. U o‘zining nashriyotdagi ish faoliyati davomida “O‘rmon alifbosi” nomli mualliflik kitobini rassom-dizayner sifatida nashrga tayyorladi va mazkur kitob 2012-yilda chop etildi. Bundan tashqari, Gulnozning bolalarga atalgan interfaol o‘yinlar uslubida yaratgan “Topishmoqlar – Угадай и раскрась” nomli ikki tildagi topishmoqlar kitobi ko‘plab kitobxonlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi va bir necha yillar davomida qayta-qayta nashr etildi. Mazkur kitobda she’riy topishmoqlar o‘zbek va rus tillarida, javobi esa bo‘yash va nuqtalarni birlashtirib chizishga mo‘ljallangan rasm shaklida berilgan.



Gulnoz 2015-yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining “Amaliy san’at asarlarini ta’mirlash va qayta tiklash” yo‘nalishiga o‘qishga kirdi. Ta’lim yo‘nalishidan kelib chiqib, O‘zbekiston hududidan topilgan qadimiy buyumlarni o‘rganish, ta’mirlash va qayta tiklash jarayonlarini katta qiziqish bilan o‘rgandi.

Gulnoz talabalik davrining birinchi yilidayoq XIX-XI asrlarda Qanqa hududidan topilgan va hozirgi kunda Ikuo Xirayama nomli Xalqaro Madaniyat Karvonsaroyining muzeyida saqlanayotgan qadimiy sopol eksponatlarning o‘ndan oshig‘ini ta’mirlab, tiklashga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu eksponatlar 2016-yilda Ikuo Xirayama nomli Xalqaro Madaniyat Karvonsaroyida tashkil etilgan “Ajdodlar merosi” nomli sopol buyumlarni ta’mirlash bo‘yicha ko‘rgazmada namoyish etildi.

Gulnoz 2016-yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti talabalarining ijodiy ishlari tanlovida faxrli o‘rin sohibasi bo‘ldi va bir qancha Xalqaro ijodiy tanlovlarda yuqori natijalar ko‘rsatdi.

2016-yilda Yaponiya va O‘zbekiston hamkorligi doirasida yaponiyalik arxeolog va ta’mirshunos professorlar ishtirokida o‘tkazilgan “Ta’mirlash va qadimshunoslik bo‘yicha malaka oshirish darslari”da ishtirok etib, imtiyozli diplom bilan taqdirlandi. Aynan shu yildan boshlab u “Donish chirog‘i” nashriyot-matbaa uyining bosh-rassom dizayneri sifatida ish boshladi.

Gulnoz Tojiboyevaning bir nechta xorijiy tillarni bilishi, nafaqt O‘zbekiston, balki chet davlatlar bilan do‘stona adabiy aloqalar o‘rnatishiga zamin yaratdi va 2017-yilda Yevrosiyo Xalqaro Ijodkorlar Gildiyasi — Eurasian Creative Guild (London) a’zosi bo‘ldi.



2019-yilda Gulnoz “Qadimiy so‘g‘d libosining ta’mir loyihasi” mavzusida diplom ishini yoqlab, institutni Qizil diplom bilan tamomladi. O‘sha yildan boshlab u O‘zbekiston Badiiy Ko‘rgazmalar direksiyasida san’atshunos sifatida ish boshladi.

G.Tojiboyeva ko‘pgina sohalarda faoliyat olib borib, professional darajaga olib chiqqanining yana bir ko‘rinishi, bu — hunarmandlikdir. U maktabda o‘qiyotgan kezlaridayoq o‘zbek milliy amaliy san’atining namunasi bo‘lgan kashtachilik, zardo‘zlik va munchoqli bezaklar yaratish bilan faol shug‘ullangan. Kashta naqshlari bilan zeb berilgan liboslar, o‘zbek kelinlarining zar do‘ppilari, munchoqli dekorativ buyumlar uning qanchalik qo‘li gul va sabri ummondek sarhadsiz ekanligini namoyish qiladi. 2019-

yilda Gulnoz Tojiboyevaning “Onamga atalgan gullar” nomli o‘zbek milliy san’atiga aloqador kashtalar, do‘ppilar va boshqa ijod namunalari jamlangan katalogi chop etilib, mazkur yilda u O‘zbekiston Badiiy akademiyasining Badiiy Ijodkorlar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindi.

Gulnoz hozirgi kunda bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan 13 ta kitob muallifidir: “O‘rmon ertaklari” (2006), “Kuladigan quyoncha” (2008), “O‘rmon alifbosi” (2012), “Topishmoqlar – Угадай и раскрась” (o‘zbek va rus tilida, 2012), “Jayxun va Alanga” (fantastik roman, 2018), “O‘rmon alifbosi” (takror nashr, 2018), “Epchil zag‘izg‘on” (2021), “Sayohatchi kemacha” (2022), “Mehmondo‘st olmaxon” (2022), “Джайхун и Аланга” (2022), “우즈베키스탄-표지와본문-최종” (“Samarqand – Sharq marvaridi”, koreys tilida, ACC, Janubiy Koreya, 2023), “Новый дом муравьев” (rus tilida, 2023), “День рождения сороки” (rus tilida, 2023).

Gulnoz Tojiboyevaning ertak va hikoyalari rus, qozoq, qirg‘iz, vetnam, ingliz, koreys, belorus tillariga tarjima qilinib, “DASH” (Angliya), “Atunis Galaxsy Poetry” (Belgiya), “Sindh Courier” (Pokiston), “Нева”, “Камертон”, “Мастерская” (Rossiya), “Автограф” (Ukraina), “Белая Скала” (Qrim Respublikasi), “Дактиль” (Qozog‘iston) va boshqa qator davlatlarning adabiy jurnallarida chop etib kelinmoqda.



Aynan Bolalar va o‘smirlar adabiyotini rivojlantirish maqsadida Gulnoz Tojiboyeva 2019-yildan boshlab bir necha fidoiy o‘zbek yozuvchilari, shuningdek, chet ellardagi bolalar adiblarini jamlagan holda “HUMO” Xalqaro ertaklar tanlovining bosh koordinatori sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Tanlovdan ko‘zlangan maqsad O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston respublikalari hududidagi bolalar adabiyoti janrida ijod qilayotgan 35 yoshgacha bo‘lgan yozuvchilarni topish va ijodlariga yordam berishdan iborat. Mazkur tanlov yozuvchi Muhabbat Yo‘ldoshevaning muallifligi va bolalar yozuvchisi, IT tizimi mutaxassisi Xurshid Tojiboyevning homiyligi asosida tashkil etilgan.

2020-yilda O‘zbekistondagi “Россотрудничество” tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan “Eng sehrli bayram” nomli ertaklar tanlovida faxrli o‘rin sohibasi bo‘ldi.

Gulnoz 2021-yilda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasiga a’zo bo‘ldi hamda Partiya tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Yoshlar kelajak drayverlari” I Respublika Yoshlar forumida “Bolalar va o‘smirlar adabiyotini rivojlantirishga doir takliflari” bilan faol ishtirok etdi.



G.Tojiboyeva rus va ingliz tillarini bilishidan O‘zbek bolalar adabiyotini rivojlantirishda keng foydalanib, bir necha yillardan beri O‘zbekiston bilan hamkor MDH va xorijiy davlatlarning adabiy nashrlariga Zulfiya Mo‘minova, Muhiddin Omon, G‘ayrat Majidov, Muhabbat Hamidova, Dilfuza Shomalikova, Feruza Odilova, Orif To‘xtash, Salim Ashur, Muhiddin Abdusamat, Shodi Otamurod, Dilfuza Kamoljonova va boshqa qator bolalar adiblarining asarlarini rus va ingliz tillariga tarjima qilib bergan. Bundan tashqari, 2016-2017-yillarda o‘zbek telekanallari bilan hamkorlikda 50dan oshiq xorijiy filmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Bolalar yozuvchisi, rassom va tarjimon Gulnoz Tojiboyeva tarjima san’atiga qo‘shayotgan hissasi uchun YUNESKO qoshidagi Butunjahon Yozuvchilar uyushmasining “Vilyam Shekspir” nomidagi Xalqaro mukofoti bilan taqdirlandi (2022).



Gulnozning koreys tilidagi “Samarqand — Sharq marvaridi” nomli kitobi Janubiy Koreyada nashrdan chiqdi (2023). Janubiy Koreyaning madaniyat vazirligi va Osiyo Madaniyat markazi tashabbusi bilan nashr etilgan ushbu asarda tarixiy va zamonaviy Samarqand hamda uning qadamjolari haqida so‘z boradi.

Bolalar adabiyotida chorak asrlik faoliyatga ega adiba Gulnoz Tojiboyeva bir necha yillardan beri Toshkent shahridagi turli maktablarda bilimga chanqoq va ijodkor o‘quvchilar bilan qiziqarli adabiy uchrashuvlar, sovrinli o‘yinlar o‘tkazib, g‘oliblarga va maktab kutubxonalariga o‘z kitoblaridan hamda oilasi vakillari bo‘lgan yozuvchi Muhabbat Yo‘ldosheva, bolalar yozuvchisi Xurshid Tojiboyevning mualliflik kitoblaridan taqdim qilmoqda.

Hozirgi kunda Gulnoz bir qator adabiy tanlovlarning hay’at a’zolari tarkibida bo‘lib, so‘nggi yillarda mamlakatimizdagi o‘quvchi yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan bir qancha tanlovlarda ekspert sifatida faol ishtirok etdi. Jumladan, 2022-yilda Respublika Bolalar kutubxonasi tomonidan o‘tkazilgan “Men eshitgan ertaklar” nomli insholar tanlovida hakamlik qilib, 70 dan ortiq qo‘lyozmalarni o‘rganib chiqdi va mualliflik huquqining buzilishi bo‘yicha maxsus dasturlar orqali tekshiruvlar o‘tkazdi. Ertaklarni internet tarmoqlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib olib, tanlov nizomini buzgan ishtirokchilar tanlovdan chetlashtirildi.

2022-yilda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi tomonidan maktab o‘quvchilari orasida o‘tkazilgan Respublika insholar tanlovida ham G.Tojiboyeva adabiy ekspertlar guruhida ishtirok etib, g‘oliblikka nomzodlarni tavsiya etish uchun o‘ttizdan ortiq qo‘lyozmalarni o‘qib, o‘rganib chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni, mutolaa madaniyatini rivojlantirish, bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan badiiy adabiyotlarni ko‘paytirish va ularning mualliflarini rag‘batlantirish maqsadida “Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob” tanlovini o‘tkazish” ga doir taklifi asosida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan “Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob” Respublika tanlovida Gulnoz Tojiboyeva “Jayxun va Alanga” nomli fantastik romani bilan faxrli II o‘rin sohibasi bo‘ldi.

Gulnozning asarlari MDH va xorijiy gazeta-jurnallarda chop etilibgina qolmay, balki qator Xalqaro antologiyalardan ham munosib joy olib kelmoqda. Jumladan, 2022-yilda Fransiyaning Parij shahrida nashr etilgan “La fenêtre de Paris” nomli Xalqaro antologiyadan uning qator she’rlari munosib o‘rin egalladi.

Gulnoz internet tarmoqlarida faol bo‘lgan O‘zbekiston yoshlarini Bolalar va o‘smirlar adabiyoti hamda kitobsevarlikka undash maqsadida 2021-yil www.muhabbatxon.uz nomli Xalqaro adabiy saytni ishga tushirdi. Mazkur adabiy sayt uch tilda – o‘zbek (lotin va kiril alifbosida), rus va ingliz tillarida yuritiladi.

Saytda o‘zbek va xorij adabiyotiga doir Yangiliklar, Nasr, She’riyat, Bolalar adabiyoti, Tarjima, Kutubxona, Fantastika, Mistika va boshqa qator bo‘limlar mavjud. Adabiy sayt bir necha xalqaro toifadagi adabiy jurnallar bilan hamkorlik qiladi. Gulnoz mazkur jurnallarning O‘zbekistondagi norasmiy adabiy koordinatori hisoblanadi.



Bugunga qadar aynan bolalar nashrlari, bolalar adabiyoti muammolari hamda ularning yechimiga qaratilgan o‘nlab maqolalari matbuotlarda e’lon qilib kelinmoqda. Bundan tashqari bir necha yillardan beri bolalar adabiyotiga doir Xalqaro ilmiy konferensiyalar, adabiy anjumanlarda O‘zbekistondan spiker sifatida ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2021 -yilda Novosibirskda o‘tkazilgan “Книжный Сибирь” Xalqaro festivalida “O‘zbekistonda pandemiya va pandemiyadan keyingi davrdagi nashriyotlar faoliyati” ga doir mavzu bilan o‘zbekistonlik spiker sifatida ishtirok etdi.

Gulnoz professional rassom-dizayner sifatida ham salkam 15 yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda. Mualliflik kitoblari bilan birgalikda, bugungi kungacha 100dan ortiq badiiy hamda ilmiy kitoblar ichki va muqova dizaynlarini yaratgan. Hozirgi kunda o‘zining ertaklari va ularga chizgan rasmlari asosida 3D formatdagi animasion filmlar yaratish ustida ish olib bormoqda.

Gulnozning qator ertaklari “Bolalar adabiyoti yagona onlayn platformasi” va boshlang‘ich sinflar uchun darsdan tashqari badiiy adabiyot to‘plamlaridan o‘rin olgan. Bundan tashqari, u bolalar adabiyotiga doir “O‘zbek xalq ertaklari” nomli seriyalik to‘plamlarga ishlangan suratlarning muallifi hisoblanadi.

G.Tojiboyeva yozuvchilar oilasining uchinchi sulolasi vakili bo‘lib, uning buvasi Xusniddin Yo‘ldoshev yozuvchi, jurnalist va tarjimon bo‘lgan, lekin bevaqt vafoti sababli bu sohada ko‘zga ko‘rinishga ulgurmagan. Uning onasi Muhabbat Yo‘ldosheva va ukasi Xurshid Tojiboyevlar ham bolalar yozuvchilari va tarjimonlardir. Bugungi kunda Gulnozning oilasi “O‘zbekistondagi yagona yozuvchilar oilasi” deya e’tirof etib kelinmoqda.

Yozuvchilar oilasi to‘liq Viki.uz yagona onlany-ensiklopediyasiga kiritilgan bo‘lib, ma’lumotlarning nafaqat matn, balki audio-formati ham mavjud.

Gulnoz Tojiboyeva “Uch avlod” ruknidagi O‘zbek bolalar antologiyasini tashkil qilgan. U yozuvchi Muhabbat Yo‘ldosheva bilan hamkorlikda ikki yil davomida butun respublikamizdagi barcha yoshga mansub bolalar adabiyoti ijodkorlarining nasr, nazm va tarjima yo‘nalishlaridagi asarlarini to‘pladi.



TO‘G‘ONBOYEVA XADICHABONU TURSUNALI QIZI

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti 3-bosqich talabasi.

- Kitoblari ingliz tilida Amerikada nashr etilib, Amazon.com sayti orqali sotuvga qo‘yilgan;
- Ko‘plab xalqaro tashkilotlar a’zosi;
- Nufuzli ilmiy jurnallarda maqolalari chop etilgan;
- Xalqaro va Respublika miqyosidagi tanlovlar ishtirokchisi va sovrindori;

To‘g‘onboyeva Xadichabonu Tursunali qizi - 2002-yil 18-noyabrda Farg‘ona viloyatining Furqat tumanida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. 2008-2013-yillarda Farg‘ona viloyati Furqat tumani 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, 2013-2019-yillar Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani 65-IDUMI da tahsil oladi.

2020-yildan buyon Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Fizika-matematika fakulteti talabasi.

Iqtidorli yoshlarni birlashtirib kelayotgan “Hilol” nomli ijodiy to‘plamning II va III sonlaridan o‘z muallifligiga tegishli ijodiy ishlari bilan o‘rin egallagan. O‘zbekiston 2022-2023-yillar “Turkcenin Dunyadaki O‘zbek Sasi” III son turkiya antologiyasidan O‘zbekiston buyuk yozuvchisi Said Ahmad hayotiga bag‘ishlangan “Said Ahmad ijodiy kundaligi” nomli maqolasi bilan o‘rin egallagan. Turkiya, Ozarbayjon 2022-yil;



50 dan ortiq davlatning shoirlari, yozuvchilari va iqtidorli yoshlarini birlashtirgan“ World in Uzbekistan” festivalida ishtirok etib, festival doirasida tashkil etilgan xalqaro antologiyadan o‘z ijodiy ishi bilan o‘rin egallagan. Ko‘plab iste’dodlarni o‘z bag‘riga joylagan ushbu kitob ingliz tilida Amerikaning Amazon.com sayti orqali dunyoning 26 davlatiga sotuvga qo‘yilgan.

2022-yil “Laughter full of laughters” nomli she’riy to‘plami ingliz tilida Amerikada 1000 nusxada chop etilib, Amazon.com sayti orqali dunyoning 26 davlatiga sotuvga qo‘yilgan. 2022-yil “The breath of life” nomli hikoyalar to‘plami ingliz tilida Amerikada 1000 nusxada chop etilib Amazon.com sayti orqali dunyoning 26 davlatiga sotuvga qo‘yilgan.

Izoh: Ko‘plab davlatlarga sotuvga qo‘yilgan kitoblarim Google internet tarmog‘i orqali Amazon.com saytida Khadichabonu Togonboeva nomi bilan topa olish va O‘zbekistonga buyurtma qilish imkoniyatlariga ega.



“Talented Voices of Uzbekistan” nomli xalqaro antologiya uchun o‘z ijodiy ishlaridan yuborgan 600 ga yaqin ijodkorlar ichida saralab olingan 130 nafar omadli yoshlarimiz qatoridan o‘rin egallagan. Ushbu kitob Amerikaning Amazon nashriyotida chop etilib, dunyoning 26 davlatiga sotuvga qo‘yilgan; 2022-yil “Leader Girls Leads The World” antalogiyasi O‘zbekistonning eng muvaffaqiyatli lider qizlari haqida ko‘plab davlatlarga ma’lumot beruvchi biografiyalar to‘plami hisoblanadi. Bu kitobda ko‘plab yutuqlarga erishgan, jamoatchilik orasida o‘z o‘rnini topib kelayotgan intiluvchan qizlarimiz joy olishgan. Xadichabonu To‘g‘onboyeva ham ushbu kitobdan munosib o‘rin egallagan.

Indoneziyaning “Asih Sasami” xalqaro tashkiloti a’zosi. 2022-yil Misrning “Creative Forum for culture, Arts and Peace” xalqaro tashkioloti a’zosi. 2022-yil Hindistonning “IQRA Foundation” xalqaro tashkiloti a’zosi. 2022-yil Argentinaning “Juntos par las Leters” xalqaro tashkiloti a’zosi. 2022-yil Osiyolik 30 dan ortiq mamlakatdan lider yoshlar ishtirok etgan “One Million Leaders Asia” sammiti ishtirokchisi. 2022-yil “Global Youth Parliament” Thailand-2022 xalqaro yoshlar sammitida ishtirok etish uchun taklif etilgan rasmiy ishtirokchi. 2022-yil O‘zbekistonda ilk bor tashkil etilgan “Shine” qizlar akademiyasining I va II mavsum bitiruvchisi. (Akademiya “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, 30 dan ortiq davlatlarning O‘zbekistondagi yosh elchisi, 50 dan ortiq davlatlarda e’tirof etilgan, bir qancha mukofotlar sovrindori Shohida Yusupova tomonidan tashkil etilgan.) 2022-yil Mental arifmetika bo‘yicha treninglik kursini tamomlagan. 2022-yil SMM (Social media marketing) mutaxasisi. 2022-yil “Yil talabasi” universitet bosqichi g‘olibasi. “Yilning eng faol ijodkor talabasi” nominatsiyasi bo‘yicha egallagan.

2022-yil Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti qoshidagi “Pedagog” gazetasida ham o‘z ijodiy ishlari bilan faol qatnashib keladi. 2021-2022-yil Yurtimizda iqtidorli yoshlar uchun tashkil etilayotgan bir qancha konferensiyalar faol ishtirokchisi. Jumladan, “Young businessmen and Economists Forum”, “Upward Growth Forum”, “Respublika Volontyor Yoshlari”, “SOLIDARITY FORUM FOR AFGHANISTAN AND UZBEKISTAN YOUTH”, “REFORMIST YOUTH”, “Bir Nuqtada Birlashamiz”, “GLOBAL EDUCATION CONFERENCE”, “Global Leaders Week”, “Lider Zakovatchi”, “Parvoz” yoshlar forumining bir nechta mavsumlari faollaridan hisoblanadi. 2020-2022-yillar Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda bir nechta maqolalari chop etilgan. Bundan tashqari, Axborot-kommunikatsiya texnalogiyalaridan ham ko‘plab zamonaviy yetuk yoshlar qatorida keng foydalanib keladi. Qolaversa, o‘z shaxsiy kanalida ham obunachilari uchun maqul keladigan she’r va hikoyalarini taqdim etib kelmoqda. 2022-yil Xadichabonu To‘g‘onboyeva Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining 2022-2023-yil Respublika bosqichi ishtirokchisi.



USMONOV FARZOD SHOXRUXOVICH

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti

- 2 ta monografiyasi va 90 dan ziyod ilmiy maqolalari nashr etilgan;
- Respublika va Xalqaro olimpiadalar sovrindori;
- Navoiy nomli davlat stipendiyasi bilan taqdirlangan;
- “Bozorlarda narxlarni tizimli monitoring qilish dasturiy ilovasi” dasturiga mualliflik guvohnomani mavjud.

Usmanov Farzod Shoxruxovich 2001-yil 9-avgustda Samarqand shahrida tug‘ilgan. Samarqand shahridagi 45-sonli umumta’lim maktabini a’lo baholarga tamomlab, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshidagi Akademik litseyida o‘qishni davom ettirgan.



Farzod Usmanov 2019-yilda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 5230100 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilindi. U o‘qish jarayonida o‘zining namunali xulqi, bilimga intiluvchanligi va barcha tadbirlarda faol ishtiroki bilan talabalar orasida ko‘zga tashlanib, professor-o‘qituvchilari hurmatiga sazovor bo‘ldi.



Usmanov Farzodning ilmiy faoliyati va izlanishlari alohida diqqatga sazovor. U turli xalqaro va nufuzli jurnallarda maqolalarini chop etib, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Farzod Usmanov institutda o‘qishining dastlabki yillarida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida 2 ta ilmiy monografiya, 1ta intellektual mulk obyektiga bo‘lgan muhofaza (egalik) huquqi, 4 ta Scopus bazasiga kiritilgan jurnallarda, 57 ta yuqori Impact faktorli jurnallarda, 7 ta OAK e’tirof etgan ilmiy

jurnalda, 18 ta xalqaro maqomdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, 8 ta respublika va vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlari to‘plamlarida maqolalarini chop etganligi uning 2021-2022-o‘quv yili uchun Navoiy nomli davlat stipendiyasiga nomzod qilib ko‘rsatildi.



Farzod Usmanov faol o‘quv va ilmiy faoliyat bilan birga institutning jamoat ishlarida ham ishtirok etib kelmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosatini talabalar o‘rtasida targ‘ib qilish, institut yoshlar bilan ishlash bo‘limining reja asosida olib borilgan tadbirlarini tashkil qilish, guruh talabalarini ijtimoiy hayotdagi tadbirlarga jalb qilish ishlarini olib bormoqda, o‘zi tahsil olayotgan guruhning sardori vazifasini bajarib kelmoqda. 2021-yilda o‘tkazilgan “O‘zbekiston yoshlar festivalining” faol ishtirokchisidir.

Iqtisodiyot fanlarini o‘rganish bilan bir qatorda o‘z qiziqishlariga vaqt ajratib kelmoqda. Iqtisodiyot nazariyasi, mikroiqtisodiyot, ekonometrika fanlariga qiziqib turli darajadagi fan olimpiadalarida ishtirok etmoqda.

2020-yil 30-iyunda Rossiya Federatsiyasi, Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan “Iqtisodiyot fanlari” bo‘yicha o‘tkazilgan “Ensiklopedist” xalqaro onlayn olimpiadasida “Mikroiqtisodiyot” fanidan faol ishtirok etib 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan.



2021-yil 2-iyunda o‘tkazilgan “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan onlayn fan olimpiadasining Respublika bosqichida faol qatnashib, 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi.



2023-yil 12–yanvarda “Global university” assosiatsiyasi tomonidan

o‘tkazilgan xorijiy fuqarolar uchun Rossiya Federatsiyasida magistraturada ta’lim olish bo‘yicha grant sovrindori bo‘ldi.



O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2022-yil 14-fevraldagi 52-sonli buyrug‘iga muvofiq a’lo o‘qishi, namunaviy xulqi hamda faol jamoatchilik ishlari uchun Navoiy nomli davlat stipendiyasi bilan taqdirlandi.

Axborot texnologiya va dasturlashni chuqur o‘rganishga harakat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan 2020-yil “Bozorlarda narxlarni tizimli monitoring qilish dasturiy ilovasi” dasturiga mualliflik Guvohnomani qo‘lga kiritdi.

Usmanov Farzod Shoxruxovichning iqtisodiyotning har bir sohasiga qiziqishi, shijoati, mehnatsevarligi, bilimga chanqoqligi tahsinga sazovordir. Institut talabalar va professor-o‘qituvchilar jamoasi orasida obro‘-e’tiborga ega.



YAXSHIBOYEV RUSTAM ERKINBOY O‘G‘LI

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Axborot – kompyuter texnologiyalari va dasturlash” kafedrasi assistenti

- 10 ga yaqin o‘quv qo‘llanmalar muallifi;
- O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligining 30 yilligi esdalik ko‘krak nishoni sohibi;
- Ko‘plab xalqaro va mahalliy konferensiyalar ishtirokchisi.

Yaxshiboyev Rustam Erkinboy o‘g‘li 1996-yil 23-avgustda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Ma‘lumoti oliy. 2015-2019-yillar oralig‘ida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Kompyuter injiniring” bakalavr ta’lim yo‘nalishini va 2019 – 2021-yillar oralig‘ida “Kompyuter tizimlarini loyihalash” magistrarura mutaxassisligini tugatgan.

2020-2022-yillar oralig‘ida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Kompyuter injiniring” fakultetining “Kompyuter tizimlari” kafedrasida assistent lavozimida faoliyat yuritgan.



Faoliyati davrida 2 ta SCOPUS bazasida indekslanuvchi ilmiy maqolalar, 4 ta OAK tarkibiga kiruvchi jurnallarda ilmiy maqolalar va xalqaro konfrensiyalarda ilmiy ishlanmalari bilan ishtirok etgan.

Ilmiy-uslubiy ishlarda esa OTM va texnikumlar uchun hammualliflikda 3 ta o‘quv qo‘llanma va 3 ta uslubiy ko‘rsatmalar nashr qilgan, 10 dan ortiq EHM uchun dasturiy guvohnomalar muallifi.



2022-yil sentabr oyidan boshlab Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Belarus

Davlat Informatika va Radioelektronika universiteti qo‘shma axborot texnologiyalari fakulteti, “Axborot - kompyuter texnologiyalari va dasturlash” kafedrasida assistent lavozimida faoliyat olib bormoqda.



Faoliyati davrida yakka Mualliflikda texnikum va kasb-hunar kollejlari uchun 3 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta hammualliflikda o‘quv qo‘llanmalar nashr qildi. 10 dan ortiq EHM uchun dasturiy guvohnomalar muallifi, SCOPUS bazasida indekslanuvchi ilmiy maqola, 4 ta xalqaro ilmiy jurnallarda, 10 dan ortiq OAK tarkibidagi ilmiy jurnallarda va 5 dan ortiq xalqaro ilmiy konfrensiyalarda maqollarda va ilmiy ishlanmalar bilan qatnashib kelmoqda.



Xususan, t.f.n., dotsent Xodjayev N., TATT o’qituvchisi N.V. Grinyuk bilan hammualliflikda “Shaxsiy kompyuter arxitekturasi va texnik xizmat ko‘rsatish” fanidan o‘quv qo‘llanmasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug‘iga asosan) , Phd, dotsent Kuchkarov T.A., t.f.n., dotsent Xodjayev N. bilan hammualliflikda “Shaxsiy kompyuter va ofis qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish” fanidan o‘quv qo‘llanmasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug‘iga asosan), yakka mualliflikda “Shaxsiy kompyuter va ofis qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish” nomli o‘quv qo‘llanmasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug‘iga asosan),



“Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanidan o‘quv qo‘llanma (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug‘iga asosan), “Shaxsiy kompyuter va ofis qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish” fanidan 5.52.01.01-Kompyuter injiringgi mutaxasisligiga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug‘iga asosan), B.N. Siddiqov bilan “Shaxsiy kompyuter arxitekturasi va unga xizmat ko’rsatish” fanidan 5.52.01.01-



Kompyuter injiringgi mutaxasisligiga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug‘iga asosan), B.N. Siddiqov bilan “Ofis

texnikasiga texnik xizmat ko‘rsatish” 5.52.01.01-Kompyuter injiringgi mutaxasisligiga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug‘iga asosan) o‘quv jarayonida keng foydalanib kelinmoqda.



2021-yilda O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligining 30 – yilligi munosabati bilan ta’sis etilgan esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

2023-yil I chorakda 05.01.04- Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti doktorantura yo‘nalishiga mustaqil izlanuvchi sifatida qabul qilindi.



“Ustoz – shogirt” an’anasini davom ettirish maqsadida hozirgi kunda Radio va mobil aloqa fakultetining 2 – va 3 – bosqich talabalari, B.N. Siddiqov va M.B.Qudratillayevlar bilan EHM uchun dasturiy guvohnomalar, OAK tarkibidagi ilmiy jurnallar va xalqaro konfrensiyalarda ilmiy maqolalar bilan ishtirok etib kelmoqda.







YUVASHEVA DILNOZA XASANOVNA

Xitoy Xalq Respublikasi Daliyan shahri Daliyan texnologiya universiteti 3-bosqich PhD doktaranti

- 15 tadan ortiq xalqaro va ilmiy jurnallarda maqolasi chop etilgan;
- Ko‘plab tanlov va musobaqalar ishtirokchisi va sovrindori.
- Xalqaro va Respublika ilmiy konferensiyalarida faol ishtirok etib kelmoqda.

D.Yuvasheva: ***“Mening hayotdagi eng katta maqsadim va orzuim doktoranturani tugatib, Yangi O‘zbekistonni qurilish sohasiga chet elda olgan bilim va tajribalarim bilan hissa qo‘shish”***

Yuvasheva Dilnoza Xasanovna 1988-yil 8-martda Namangan viloyati, Mingbuloq tumanida tavallud topgan. Millati o‘zbek. Toshkent shahar Olmazor tumanida istiqomat qiladi.

Quruvchi pedagok bo‘lish orzusi, uni dastlab Toshkent Arxitektura qurilish institutiga boshladi. **2011-2015-yillar** oralig’ida institutning “Kasbiy ta’lim (Bino va inshootlar qurilishi)” bakalavriat yo‘nalishini imtiyozli tamomladi. U bakalavrni o‘qib yurgan kezlarida yangi bilimlar o‘rganish maqsadida qo‘shimcha kurslarga qatnadi. **2013-yilda** Toshkent shahrida “MASTER CLASS” markazida **2 oylik “Designer”AutoCAD** kursini tamomladi.



D.Yuvasheva **2015-yil** “Sport salomatlik garovi” shiori ostidagi Respublika spartakiadasining Toshkent shahar Shayhontohur tumani sport musobaqasida **“G‘alabaga bo‘lgan intilishi uchun”** “DIPLOM”i bilan taqdirlangan hamda boshqa tadbirlarda ishtirok etgani uchun bir nechta “Faxriy yorliq”lar bilan ham mukofotlangan. Bilim olishga va ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi uni magistraturada ta’lim olishga undadi. **2016-2018-yillar** davomida Toshkent Arxitektura-qurilish institutining **“Qurilishni tashkil etish texnologiyasi”** mutaxassisligi bo‘yicha

magistraturaga 1-o‘rinda grant asosida o‘qishga qabul qilindi.



U **2016-2017**-o‘quv yili yakuni bo‘yicha a‘lo baholari va na‘munali xulqi uchun **«INSTITUT FAXRI»,** hamda **2017-yil 9-10 avgust** kunlari «**Yoshlar kelajagi bunyodkori»** ilmiy-amaliy masalalariga bag‘ishlangan respublika konferensiyasida faol ishtirok etganligi uchun «**SERTIFIKAT»** bilan taqdirlandi shuningdek **15 tadan ortiq** xalqaro va ilmiy jurnallarda maqolasi chop etilgan hamda imtiyozli magistr darajasini olgan. Uning magistraturada ilm-fanga intiluvchanligi hamda ilmiy rahbari texnika fanlari doktori professor Mirahmedov Mahammadjon Mirahmedovich kelajakda doktoranturani o‘qishi kerakligini ta’kidlagan va D.Yuvashevada doktoranturani chet elda o‘qishi orzusi paydo bo‘ladi.

D.Yuvasheva Xitoy davlatidagi barcha oliy o‘quv yurtlari bilan tanishib chiqadi hamda magistraturani ikkinchi bosqichida hujjatlarini to‘plab, dunyo bo‘yicha top **1000 talikka kirgan** Xitoy davlatidagi **uchta nufuzli** oliy o‘quv yurtlariga hujjatlarini topshiradi. Dunyo bo‘yicha top **321-o‘ringa kirgan** Xitoy davlati,



Daliyan shahri Daliyan texnologiya unversitetiga **2018-yil 26-iyunda** butun dunyo talaba-yoshlari o‘rtasida **4-o‘rinda** grant asosida **„0805**-Qurilish materiallari va muhandisligi” mutahassisligiga o‘qishga qabul qilinganligi to‘g‘risida unversitet tomonidan mandat javobi yuboriladi.

D.Yuvashevani bu darajaga yetishi uchun Toshkent arxitektura-qurilishi instituti professorlari M.Mirahmedov, X.Yusupov, R.Norov, Z.Sattorov,M.Mahkamova, N.Aripova, Z.Shodmonova, I.Salimova, N.Alimovalar tomonidan berilgan bilimlari va mashaqqatli mehnatining samarasi bo‘ldi. U **2018-yil 13-sentyabr kuni** katta hayajon bilan O‘zbekistondan Xitoyga uchub ketadi. U ilk qadamini Xitoy Xalq Respublikasini poytaxti Pekinga qo‘yadi u Xalqaro aeraportdan chiqar ekan, uni birinchi hayratga solgan narsa bu juda baland-baland osmono‘par ajoyib ko‘rinishlari bilan qad ko‘targan binolar bo‘ldi. Dilnoza: “Men kelajakda doktoranturani tugatib, yurtimga qaytib, shunday chiroyli o‘zgacha ko‘rinishli osmono‘par baland-baland binolarni qurilishida hamda O‘zbekistonda qurilish sohasida ishlab chiqarilayotgan materiallarga Xitoyda olgan bilim va

tajribalarim bilan yurtimni rivojlanishiga o‘z hissamni qo‘shaman”,- degan maqsadni oldiga qo‘ydi.



D.Yuvashevani universitet tomonidan ma‘sul o‘qituvchilar kutib olishdi u universitetga borib ro‘yxatdan o‘tdi. Uning ilk o‘qishlari boshlandi, kursdoshlari turli xil davlatlardan edi va u ilk hayajonlar bilan universitetda o‘qishni boshladi. **2020-yil Xitoyning** Vuhan shahrida **Covid-19** virusi chiqdi va qattiq karantin boshlandi u O‘zbekistonga qaytishga va yaqinlarining oldida bo‘lishga qaror qiladi. U yurtiga qaytib keldi. O`zini Xitoyda **2 yil** olgan bilim-tajribalari bilan **2020-yil 5-sentyabrdan** Toshkent arxitektura-qurilish instituti bino va inshootlar qurilishi fakulteti “Qurilishni tashkil etish texnologiyasi” kafedrasida o‘rindosh assisent lavozimida institut talaba-yoshlariga **“Qurilish mashinalari”, “Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish”, “Qurilish jarayonlari texnologiyasi”, “Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi**” fanlaridan saboq berdi.

U kafedrada faoliyat yuritayogan davrida O‘zbekistonda ham **Covid-19** bo‘yicha call markazlari tashkillashtirilgan edi, shu **“Call markazi”da** institut tomonidan bir nechta o‘qituvchilar jalb etildi va shularning ichida Dilnoza Xasanovna ham bor edi u o‘zining mehnatsevarlik va hushmuomalaligi bilan **2 oy** call markazidan volontyor bo‘lib ishladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan **Mamlakatimizga koronavirus infeksiyasining kirib kelishi va tarqalishining oldini olish, shuningdek, pandemiya sharoiti va karantin tadbirlari davrida sanitariya-epidemiologiya xizmatlari va sog‘liqni saqlash muassasalariga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Call-markaz”**lar faoliyatida fidokorona va samarali mehnati tufayli **“TASHAKKURNOMA”** bilan taqdirlandi.

D. Yuvasheva karantin bo‘lishiga qaramasdan ilmiy rahbari texnika fanlari



doktori professor **Fan Can Fen** tomonidan masofaviy ilmiy ishi bo‘yicha topshiriqlar olib, ma’sulyat bilan berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarar edi. **2021-yil 9-avgust** kuni **Journal of Materials Engineering and Performance** jurnalida dissertatsiya mavzusi

bo‘yicha “Effect of Heat Treatment on Microstructure and Residual Stress of GH3536 Superalloy Fabricated by Selective Laser Melting” nomli maqolasi chop etildi.

2021-2022-yillar O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi “Sport



ob’yektlari infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha, Birlamchi ruhsat beruvchi, loyiha va



tanlov hujjatlarini tayyorlash bo‘limi” da yetakchi mutahassis lavozimda hamda O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi “Binolardan foydalanish va qurilish-ta’mirlash ishlari, Birlamchi ruhsat beruvchi, loyiha va tanlov hujjatlarini tayyorlash bo‘limi” da bosh mutahassis lavozimida faoliyat olib bordi.









D.Yuvashevaga vazirlikda ishlagan davrida Sh.Xaydarova, M.Xayitova, Z.Abdullaeva, Q.Movliyanov, Sh.Kilichev, A.Irgashev, D.Muratkabulov, A.Xolto‘rayevlar o‘z bilimlarini berishda katta hissalarini qo‘shgan. D.Yuvashevani har bir ustozlari u



uchun juda qadirli va shunday ustozlari borligidan faxrlanib gapiradi.

2022-yil 4-oktyabrda o‘qishini davom ettirish uchun Xitoy davlati, Daliyan texnologiya unversitetiga qaytdi va u hozirda **3-bosqich** doktoranturada o‘qimoqda.

D.Yuvasheva: **“Mening shunday muvaffaqiyatga erishishim uchun menga o‘z bilimlarini va maslahatlarini ayamasdan va hayot yo‘limda to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirgan oila a’zolarimga, O‘zbekistondagi ustozlarimga, Xitoy Xalq Respublikasidagi ustozlarimga boshim yerga tekkuncha doim ta’zimdaman. Men ular bilan faxrlanaman. Yana mening hayotdagi eng katta maqsadim va orzuim doktoranturani tugatib, Yangi O‘zbekistonni qurilish sohasiga chet elda olgan bilim va tajribalarim bilan hissa qo‘shish” deydi.**



O‘RINOVA OYSHA DILMUROD QIZI

Navoiy davlat pedagogika instituti “Fizika va astronomiya, qo‘shimcha matematika” ta’lim yo‘nalishi talabasi

- “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovi g‘olibasi;
- “Ilm-fan iftixori” va “Intelektual izlanuvchi” esdalik ko‘krak nishonlari sohibasi;
- Ko‘plab uslubiy qo‘llanmalar hamda “Mirzo Ulug‘bek va uning ilmiy merosi” nomli monografiyaning muallifi;
- Faoliyati davomida bir nechta Xalqaro va Respublika ilmiy jurnallarida maqolalari chop etib kelinmoqda;

O‘rinova Oysha Dilmurod qizi 2003-yilning 10-avgustida Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanida tavallud topgan.

2009-yil Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanida joylashgan 61-IDUMga 1-sinfga qabul qilingan. 2020-yilda maktabni a’lo baholarga tamomlagan. 11 yillik maktabda tahsil olishi jarayonida Fizika fanidan “Bilimlar bellashuvi” va “Fan olimpiadalari” ning faol ishtirokchisi hisoblanadi. Maktabning tashkiliy, ma’naviy va ma’rifiy ishlarida faol ishtirokchisi bo‘lgan.

2020-yil Navoiy davlat pedagogika institutiga shartnoma asosida o‘qishga qabul qilingan. 2021-yilda esa qayta oliy ta’limga hujjat topshirib, Navoiy davlat pedagogika institutiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilingan. Hozirgi kunda O‘rinova Oysha “Fizika va astronomiya, qo‘shimcha matematika” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

Hozirgi kunga kelib iqtidorli talabalar safida ilmiy ishlar ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Faoliyati davomida bir nechta Xalqaro va Respublika ilmiy jurnallarda maqolalari chop etib kelinmoqda. “Science and innovation”, “Новости образования: исследованиев XXI веке”, “International multidisciplinary scientific journal”, “Journal of universal science research (JUSR)” kabi Xalqaro jurnallarda hamda ko‘plab milliy ilmiy-amaliy, texnikaviy jurnallarida ko‘plab maqolalari chop etilgan.

“Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologlar: nazariya va amaliyot”, mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, “Astronomiya fanini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanish metodikasi: muammo va yechimlari” mavzusiga doir Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, “Fizika fanini axborot va innovatsion texnologiyalar muhitida o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari: muammo va yechimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani, “Hozirgi zamon fizikasining dolzarb muammolari” Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjumani, “XXI asr ilm-fani va ta’lim sohasida ayollar: yutuqlari va muammolari” mavzusiga doir

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, “Milliy ilmiy tadqiqotlar yetakchisi” loyihasi va Xalqaro ilmiy konferensiyalar ishtirokchisi hisoblanadi.



Ilg‘or tadqiqotlar ilmiy markazining 2023-yil 13-yanvardagi 03-sonli buyrug‘iga asosan “Ilm-fan iftixori” esdalik ko‘krak nishoni sohibasi bo‘lgan.



“Best Publication” ilmiy tadqiqotlar markazining 2022-yil 24-dekabrdagi 32-sonli qaroriga asosan Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan “Intelektual izlanuvchi” esdalik ko‘krak nishoni sohibasi bo‘lgan.

Navoiy davlat pedagogika instituti Kengashining qaroriga asosan, “Fizika sohasidagi Nobel mukofoti sovrindorlarining hayoti va ilmiy faoliyati”, “Sharq astronomiyasi”, “Fizika. Physics”, “Fizikadan maktab amaliy mashg‘ulotlari” (7-9-sinf), “Fizikadan maktab amaliy mashg‘ulotlari” (10-11 sinf) nomli uslubiy qo‘llanmalari hamda “Mirzo Ulug‘bek va uning ilmiy merosi” nomli monografiyaning muallifi hisoblanadi.



O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk agentligi tomonidan tasdiqlangan “Internationally turizm in Navai” sayti muallifi bo‘lib, ushbu loyihasi doirasida “Ulug‘bek” jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilayotgan “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovida ishtirok etib, g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

Hozirgi kunda nafaqat, fakultetda, institutda, balki viloyat va Respublika miqyosida o‘tkazib kelinadigan ko‘plab tadbirlar, tanlovlar, bellashuvlar, loyihalarda faol ishtirok etib, diplom va sertifikatlar sohibasi hisoblanadi.



Hozirgi kunda ilmiy rahbari – t.f.d. (DSc), prof. D.I.Kamalova bilan birgalikda ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanishda faol davom etib kelmoqda.

Mundarija

Abdurahimova Dilnavoz Boqijon qizi ……..…… **5**
Ahmadjonova Mashhura Akramjon qizi ……... **7**
Berdiyeva Iroda Xudayshukurovna …….. **11**
Bozorova Aziza Murodullo qizi …… **17**
Egamberdiyeva Umida Akmal qizi ……... **19**
Jumamuratov Bexzod Akramjonovich **22**
Maxmudova Dilbar Raxmonovna **24**
Mirzaqandova Sohibjamol Xolmo‘min qizi ……. **27**
Nurmamatov Sheroz Eraliyevich **29**
Rashidova Nilufar Normurod qizi **32**
Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna **34**
Samandarova Nozima Ilhomjon qizi …… **36**
Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi **39**
Sobirov Javohir Xayrulla o‘g‘li …… **42**
Saribayev Baxitli Abdillayevich …… **45**
Tursunqulova Maxfuza To‘lqin qizi **47**
Tojiboyeva Gulnoz Zohidullo qizi **49**
To‘g‘onboyeva Xadichabonu Tursunali qizi **54**
Usmonov Farzod Shoxruxovich …….. **56**
Yaxshiboyev Rustam Erkinboy o‘g‘li …….. **59**
Yuvasheva Dilnoza Xasanovna …… **62**
O‘rinova Oysha Dilmurod qizi ……. **67**

MENING MUVAFFAQIYAT YO‘LIM
biografik ensiklopediyasi
2023-yil to‘plami
2-qismi

www. successful.uz

Bosh muharrir
Rustamov B.N.

Mas’ul muharrir
Raxmatullayeva G.V.

Texnik muharirlar
U.Abduxakimova, D.Djalilova, A.Rustamov, G.Isayeva, H.Qodirov

Bosmaxonaga berildi: 14.08.2023. Bosishga ruxsat etildi: 15.08.2023.
“Times New Roman” garniturasi, Ofset bosma. Adadi: 500 dona.

“Science and innovation” MCHJ
Litsenziya №:038864 15.09.2022
Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654